

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI

JAHON TARIXI KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

Sh.A. Hayitov

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: “Ubaydullanoma” Ashtarxoniylar davri tarixshunosligining
muhim manbalaridan biri**

**5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavr darajasini
olish uchun**

**Tarix ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi: Elmurodova
Nigora Jobir qizi**

**Ilmiy rahbar:
dotsent**

K.J.Raxmonov

Buxoro – 2019

Kirish.

I-bob XVII asr boshlari XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligi.

I.1. “Ubaydullanoma”da Ashtarxoniylar davri siyosiy hayotining yoritilishi.

I.2. Buxoro xonligida ma'muriy-boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

II-bob “Ubaydullanoma”Ashtarxoniylar davri tarixshunosligi namunasi.

II.1. “Ubaydullanoma”Ashtarxoniylar davri tarixshunosligining muhim manbalaridan biri.

II.2. “Ubaydullanoma” asarida Surxon vohasi tarixining yoritilishi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Mavzuning dolzarbligi: Keyingi yillarda Surxon vohasi tarixini o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayniqsa so'nggi o'rta asrlar davri tarixi tarixshunosligi masalasida muhim tatqiqot ishlari olib borilmoqda. Aynan, mazkur tatqiqotlar voha tarixini to'laqonli o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, Surxon vohasi Buxoro xonligining Sharq davlatlari bilan bo'ladigan savdo, iqtisodiy aloqalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tatqiqot mavzusi qilib tanlangan mazkur mavzuni o'rganish orqali tarixning yangi qirralarini ochish imkoni yaratiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratildi va birinchi navbatda tariximiz haqida asosiy ma'lumotlarni bera oluvchi tarixiy manbalarni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Mavjud tarixiy manbalarni o'rganish, ularni o'zbek tiliga tarjima etish va nashr etish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu borada vatanimiz tarixining o'rta asrlariga tegishli manbalarning keng o'rganilayotganligi va nashr etilayotganligi e'tiborlidir. Bu bejiz emas albatta, Qator chet el istilochilari zulmidan bir necha bor ozod bo'lgan xalqimiz mustaqil taraqqiyotni qanday yo'lga qo'y olganligi, o'z taraqqiyot yo'lini qanday belgilay olganligi va uning natijalari shu tarixiy manbalarda aks etgan edi. Shu o'rinda ko'plab tarixiy manbalarning nashr etilib, xalqimizga tufha etilayotganligi quvonarlidir. O'z tariximizga oid asar va qo'lyozmalar, ularni ayniqsa o'z ajdodlarimiz tomonidan yaqin o'tmishda bitilganlarini o'rganish tarixchilarimiz oldida eng katta vazifa bo'lib qolmoqda. Zero: "Kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilish dastlabki vazifalarimizdandir. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va axoli o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda" – deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.¹

¹Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". 2017. – B.47.

Mavzuning o‘rganilish darajasi: Mazkur mavzuning ilmiy jihatdan o‘rganilmaganligini hisobga olib va uning metodologik asoslaridan kelib chiqib mavzuga bevosita daxldor adabiyotlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi, Rossiya imperiyasi davrida rus sharqshunoslari, jumladan tarixchilar, sayohatchilar, harbiylar, tabiatshunoslar tomonidan bitilgan asarlar.

Ikkinchi, sovet davri tarixshunoslari tomonidan yozilgan ilmiy tatqiqot ishlari.

Uchinchi, mustaqillik yillarida yozilgan monografiyalar, risolalar, maqolalar va ilmiy-ommabop nashrlar.

Ashtarxoniylar davri tarixi, xususan Buxoro-Balx munosabatlari rus tatqiqotchilarining diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Ashtarxoniylar davri tarixini rus tatqiqotchilari tomonidan o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu ishga akademik V.V.Bartold “Bahr al-asror fi manaqib al-axror” asarini o‘z asarlarida foydalanish orqali boshlab berdi².

A.A.Semenov tomonidan Muxammad Yusuf Munshi. “Muqimxon tarixi”; Mir Muxammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”; Abduraxmon Tolening “Abulfayzxon tarixi” asarlari tarjima qilindi. Bu davr to‘g‘risida ko‘plab ma'lumotlar akademik B.Ahmedovning asarlarida o‘z aksini topdi. Uning XVI - XVIII asrlarda Shimoliy Afg‘oniston va Movarounnahr tarixini yoritgan “Balx tarixi” nihoyatda qimmatli asar hisoblanadi. Shuningdek u tomonidan tarjima qilingan “Bahr ul-asror” asarining birinchi tomi ham muhim ahamiyatga ega. Ashtarxoniylar davri tarixini o‘rganish borasida rus sharqshunoslari va tarixchi olimlari tomonidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Jumladan, A. A. Семеновнинг ” Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре”// Советское востоковедение. М. - Л., 1948. Т.У.; “К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана”//Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. Сталинабад, 1954; “Шейбанихан и завоевание им империи Тимуридов”//

²Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан –М.,1965.

Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. Сталинабад, 1954; “Первые Шибаниды и борьба за Мавераннахр”// Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. Сталинабад, 1954 ; Давидович Е. А. “История монетного дела Средней Азии XVII -XVIII вв” (золотые и серебряные монеты Джанидов). Душанбе, 1964; “Материалы по метрологии средневековой Средней Азии”.М., Историко-географическая литература Средней Азии XVI -XVIII вв. (письменные памятники). Ташкент, 1985; “О времени и обстоятельствах смены на рубеже XVI - XVII вв. династии Шибанидов Аштарханидами” // Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Вып. 2. М. 1994. Вып. 2; С.Г. Кляшторный , И.Т.Султановларнинг “Государства и народы Евразийских степей. Древность и средневековье”. СПб., 2000; И.Т.Султановнинг “Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана”. Алматы. 2001; О некоторых источниках “Бахр ал-асрар” // ПП и ПКНВ. Краткое содержание докладовУ сессии ЛО ИВ АН СССР. Л., 1969; “О терминах Ак-Орда, Кок-Орда и Йуз-Орда” // Изв. АН КазССР. Сер. обществ, наук. Алма-Ата, 1972; “Кочевые племена Приаралья в XV - XVII вв”. М., 1982 va boshqalar.

Mazkur tatqiqotlarda ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga chiqqan kunidan boshlab, bu sulolaning Markaziy Osiyoda tutgan oʻrni masalasi ancha mukammal yoritilgan.

Н.Тумановичнинг Горат в XVI - XVIII веках. М., 1989; В.Трепавловнинг История Ногайской Орды. М. 2001.asarlarida ham ashtarxoniylar davri tarixi oʻz aksini topgan

Ashtarxoniylar davlatining siyosiy-iqtisodiy hayoti M.A.Abduraimovning asarlarida oʻz aksini topgan³.

³ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века.Т.1.-Ташкент: Фан,1970.-285с.

Xo‘ja Samandar Termiziyning. Dastur ul-muluk asari ham ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixni o‘rganishda o‘ziga xos o‘ringa ega⁴.

Mustaqillik yillarida Ashtarxoniylar davri tarixini o‘rganishda muhim tatqiqotlar bajarildi. So‘nggi o‘rta asrlar davri tarixi deyarli O‘zbekiston tarixi bo‘yicha nashr qilinayotgan darsliklarda o‘z aksini topa olmayapti, vaholanki tarixning barcha davrlarida Surxon vohasi qaynoq siyosiy jarayonlar kechgan hudud sanaladi. Manbalarga asoslanadigan bo‘lsak, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar hukmronligi davrida Balx va Buxoro xonligi o‘rtasida mazkur hudud uchun o‘zaro siyosiy kurashlar kuchaygani bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston tarixining barcha davrlari emas, birgina ashtarxoniylar davrini tahlil etgan holda yuqorida bildirilgan fikrlarga javob izlaylik. XVIII asr boshlarida Surxon vohasining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, muhim tarixiy voqyealar haqida “Tarixi Muqimxoniy”, “Tarixi Ubaydullaxon” (Ubaydullanoma), Xoja Samandar Termiziy “Dastur ul-muluk”, Abdurrahman Tole’ “Abulfayzxon tarixi” asarlarida muhim ma’lumotlar berilgan.

Muhammad Yusuf Munshining “Tarixi Muqimxoniy” asarida (1702-1705) Buxoro va Balx hukmdorlarining Termiz, Hisor va Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi boshqa hududlar uchun kechgan kurashlar, jangu jadallar tasvirlansa, “Tarixi Ubaydullanoma”ning ko‘lami kengroq, unda 1702 yildan 1711 yilgacha bo‘lgan voqyealar aks ettirilgan. Shuni qayd etish lozimki, Ashtarxoniy Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulixon davrida ham Buxoro xonligining janubiy qismi Amudaryo qirg‘oqlari bilan forsiylar va Boburmirzo avlodlari hujum qilib tursada, Xuroson va yarim vassal tog‘li Badaxshon uning mulki sanalardi.

Mir Muhammad Amin Buxoriy “Ubaydullanoma” asarida ta’kidlashicha, xon qo‘zg‘olon paytida norozi va qarshi tomonlarni tinchitish uchun goh Samarqandga, goh Hisorga, goh Termizga qo‘shin yuborishga majbur bo‘ldi.

⁴ Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997.-271б.

Ubaydullaxonning Hisorga yurishini shaxsan Muhammad Rahimbiy otaliq boshqardi, chunki yuz qabilasiga uning shaxsiy adovati bor edi. Hisorliklar Buxoro qo‘shiniga zarba berib, ularni qochishga majbur qildi.

Ubaydullaxon otaliq Muhammad Rahimbiyning maslahati bilan Hisorga qilgan yurishi mag‘lubiyat bilan tugab, Muhammad Rahimbiy Samarqandga qochdi. Shundan so‘ng asosiy e‘tibor Balx chegarasida turgan Termizga qaratildi. Buxoro xonligining strategik shaharlaridan biri sanalgan shahar qadimda Barbar deb nomlangan, juda mustahkam qal‘aga ega bo‘lib, bir tomondan Amudaryoning keng qirg‘oqlari, ikkinchidan bo‘ysunmaydigan va isyonkor qo‘ng‘irot urug‘ining turli qabilalari uni yanada mustahkam himoya qilardi. Ana shunday mustahkam qal‘ani egallash orqali Muhammad Rahimbiy ikki maqsadni amalga oshirishni ko‘zlagandi. Birinchidan, Balx yo‘lidagi mustahkam qal‘aga egalik qilish, ikkinchidan, bo‘ysunmas va isyonkor qo‘ng‘irotlar hukmdori Sheralini hokimiyatdan chetlatish. Mazkur sabablar tufayli Termizga harbiy yurish ham Muhammad Rahimbiy ko‘rsatmasi bilan amalga oshirilib, qo‘ng‘irotlardan bo‘lgan shahar hokimi vazifasidan olindi, nayman urug‘idan Ne‘matulla biy mazkur vazifaga tayinlandi.

Ta‘kidlash lozimki, Termiz hududida yashovchi naymanlar orasida qo‘ng‘irotlar ko‘pchilikni tashkil etgan. Ikkinchidan, XIII asrdan buyon Termiz atrofida yashab kelayotgan qo‘ng‘irotlarning o‘zi XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ikki qismga bo‘linib ketgan. “Tabiatan musulmon bo‘lgan, hukmdorga bo‘ysunishni zarur deb bilganlari Termiz hududida joylashib, ko‘chib yurdilar va Ne‘matulla (nayman) bilan birgalikda hukmdor homiyligida qoldilar. Intilishlari, noroziliklari va shiddatlariga erk bergan, o‘z manfaatlarini dolg‘ali va boshboshdoqlikda deb bilganlari Sheralixonga qo‘shildilar va Sherobodga ketib o‘sha yerda joylashdilar.

Termiz hokimligini qo‘lga kiritgan Ne‘matulla to‘qcoba tajribasizligi va yoshligi sababli qaynotasi Shodmon yabg‘uni yoniga chaqirib, unga Termiz qal‘asini topshirib, o‘zi aholisi ko‘p Darf qal‘asiga joylashdi. Shodmon yabg‘u

o'ziga xos kishi bo'lib, davlat manfaati uning uchun yot edi. U Balxga Mahmudbiy otaliqqa ikki kishini yuborib, ular orqali butun vaziyatni tushuntirib Termiz qal'asini unga sovg'a sifatida tortiq etdi. Bunday sovg'adan quvongan Mahmudbiy butun qatag'onlar va Qabodiyon, Qo'rg'on tepadan do'rmonlardan jamlangan qo'shin yordamida Amudaryodan kechib o'tib Termizga kirib keldi. Termiz qal'asini mustahkam egallash uchun Mahmudbiy Balx hukumatidan harbiy yordam so'radi. Buxoro xonligi bilan dushman munosabatda bo'lgan Muhammadmuqim sulton Termizga Mahmudbiyga yordam tariqasida Balx harbiy qo'shinini jo'natdi. Mahmudbiy qatag'on bilan birga kelganlar Termiz va uning atrofidagi qishloqlarni talab vayron eta boshladi.

Ubaydullaxon Ne'matulla to'qsobaning no'noqligi tufayli qo'ldan ketgan Movarounnaxr darvozasi sanalmish Termizni qaytarib olish uchun Muhammad Yor eshikboshi boshchiligidagi katta qo'shinni Termizga jo'natdi. Ammo yuborilgan qo'shin natijaga erisholmagach 1705 yil 27 martda Hait dodxoh, Boqi to'qsoba olchin, Xo'ja Ali miroxo'r qatag'on, Avaz eshikboshi va boshqa qo'shin Mahmudbiyni tor-mor qilish uchun Termizga jo'natildi. Ammo bu qo'shin mag'lubiyatga uchrab, Hait dodxoh o'ldirildi.

Buxoro qo'shinini mag'lubiyatga uchratgan Mahmudbiy qatag'on 1706 yili ashtarxoniy Muhammadmuqimni o'ldirtirib, o'zini Balx xoni deb e'lon qildi. Termiz ham Balxga tobe viloyat sifatida Mahmudbiy hukmronligi ostida qoldi.

1707 yili Ubaydullaxon kenagas, mang'it va boshqa urug' boshliqlari bilan o'zaro ittifoq tuzib, ularga katta sovg'a – salomlar tashkil etib, Mahmudbiy qatag'onga qarshi harbiy yurish uyushtirdi. Harbiy yurish natijasida Ubaydullaxon Termizni istilo etib, Amudaryodan o'tib Balxni qamal qildi. Qatag'on qabilasini Mahmudbiyga yordam berishdan chalg'itish uchun Ubaydullaxon Shahrisabz o'zbeklaridan tuzilgan lashkarlarni qatag'onlar yurti Qunduzga hujum qildirdi. Uzoq qamaldan so'ng Balx egallanib, shahar talandi, xalqi qattiq jazoga tortildi.

Ayniqsa, qatag'on qabilasiga nisbatan ayovsiz jazo choralarini ko'rgani ma'lum. Balxni egallab g'alaba bilan Buxoroga qaytgan Ubaydullaxon yana boshboshdoqliklar va qo'zg'olonlar girdobida qoldi. Mana shu vaziyatda Balxda Mahmudbiy tag'in qo'zg'olon ko'tardi. Ubaydullaxon isyonni bostirishga qo'shin jo'natdi, ammo lashkar bilan birga borayotgan amirlar o'rtasidagi tortishuv hamda xonni to'liq qo'llab-quvvatlamasligi sababli qo'shin Qarshida to'xtadi. Ubaydullaxon Mahmudbiy bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. Mahmudbiy Balx hukmdorligini saqlab, Termiz unga tobe hudud sifatida qolaverdi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Malakaviy bitiruv ishidan ko'zlangan maqsad Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asarini o'rganish orqali Buxoro xonligi so'nggi Ashtarxoniylari hukmronligi davri va bu jarayonda Surxon vohasining o'rnini ko'rsatib berish. Bu jarayonni to'laqonli yoritish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-vohaning XVII-XVIII asrlardagi ashtarxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot o'rganish;

- Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida Ubaydullaxonning o'rnini aniqlash;

-Surxon vohasining ashtarxoniylar davridagi siyosiy o'rnini yoritish ;

-Ubaydullanoma asarining voxa tarixini o'rganishdagi ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy yangiligi.O'zbek xalqi tarixini haqqoniy yoritish - davlatimizning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan asarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish to'g'risida"gi 1996 yil 16 dekabr va "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini

takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyul qarorlari.Tarixni o'rganishning xolislik, ilmiylik, mantiqiy ketma-ketlik kabi tamoyillarga asoslanildi.

Bitiruv malakaviy ishikirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.1.“Ubaydullanoma”daAshtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayotining yoritilishi

1598-yilda Abdullaxon II vafot yetgach taxtga uning o‘g‘li Abdulmo‘min o‘tirdi.O‘zaro urushlar natijasida u uzoq vaqt hokimiyatni boshqaraolmay halok bo‘ldi.Taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II o‘tirib,u ham uzoq vaqt hukmronlik qila olmadi.Abdullaxon II vafotidan keyin markaziy hokimiyatning inqirozi va mamlakatdagi tartibsizliklardan Buxoro xonligining ichki va tashqi raqiblari zudlik bilan foydalanishga urinishdi. Pirmuhammadxon bu raqiblar qurshovlarini bartaraf qilishga ojizlik qildi.Chunonchi mamlakatning janubida Eronshohi Abbos Sabazavor, Mashhadva Hirotni egallaboldi. Yusuf Munshi ma'lumotlariga ko‘ra “Movarounnahrda ham butun davlatda bo‘lgani kabi boshboshdoqliklar avj olib,hyech kim birovga bo‘ysunishni xohlamadi.”⁵.Ana shunday sharoitda yangi sulola Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi.Ashtarxoniylar chingiziylar avlodidan bo‘lib,XVasrning80-yillaridan boshlab Astraxan (HojiTarxon)da hukmronlik qilganlar.XVI asr o‘rtalarida Astraxan Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach sulola hukumdori Yormuhammad sulton o‘z yaqinlari bilan Buxoroga keladi. Manba tili bilan aytganda “urus (nomila)mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib)Yormuhammadxon farzandlari Jonimuhammad Sulton, Abbos Sulton, Tursun Muhammad Sulton,Pirmuhammad Sulton va ahli ayoli bilan Movarounnahrga keldi”⁶.Buxoro hukmdori Iskandar Sulton Yormuhammad hamda uning oila a'zolarini yaxshi kutib olib ular bilan do‘stona munosabatda bo‘ldi.Oradan ko‘p o‘tmay Yormuhammadning o‘g‘li Jonimuhammad(JonibekSulton) Iskandarxonning qizi Zuhrobegimga uylandi.Shutariqa Yormuhammad va uning avlodlari Shayboniylar saroyida katta mavqyeiga ega bo‘la boshladilar. Jonibek Sultonva Zuhrobegimdan uch o‘g‘ilDinmuhammad,Boqimuhammad va Valimuhammad tug‘ildi.Vaqt kelib

⁵ Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.-Ташкент.,1956.-с.70.

⁶Ўша ерда.-с.71.

Dinmuhammad Xurosondagi viloyatlarning biri Obivardda,Boqimuhammad esa Samarqandda hokim etib tayinlanadi.Boshboshdoqliklar va o‘zaro urushlarga chek qo‘yish maqsadida 1601 yilda buxorolik bir guruh yirik zodagonlar Jonibek Sultonni katta o‘g‘li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechdi.Obivard hokimi to‘qnashuvda halok bo‘ldi.Shundan so‘ng Jonibek Sultonning ikkinchi o‘gli Boqimuhammad hokimiyatga taklif yetildi.Bu paytda Samarqand hokimi bo‘lgan Boqimuhammad Bog‘ishamol atroflarida Pirmuhammad II qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratib Buxoro taxtiga o‘tirdi(1601-1605 yillar).Shu tariqa Movarounnahrda tarixiy manbalarda ashtarxoniylar(Astraxan yoki Hoji Tarxonlik hukmdorlar)yoki Joniylar (Jonibek sulton nomidan)deb nom olgan va bir yarim asr hokimiyat tepasida bo‘lgan sulola hukmronligi davri boshlandi.Ilklavrdapulmuomilasidagitangalar Jonibek Sulton nomidan zarb yetilgan bo‘lsa-da,amalda hokimiyatni Boqimuhammad boshqardi.U mamlakatdagi tarqoqlikka barham berishga harakat qilib avvalo Xorazmni mamlakatga qo‘shib oldi.1602 yilda Balxni qo‘lga kiritib Boqimuhammadxon uni ukasi Valimuhammadga hadya qilib Andxud,Shibirg‘on,Maymana,Bag‘lon,Badashxon va Hisorni ham Buxoroga bo‘ysundirdi⁷.Boqimuhammadxon mamlakat ichki ishlariga ham alohida e‘tibor qaratib,davlat boshqaruvini tartibga solishga harakat qildi.Yusuf Munshi ma‘lumotlariga ko‘ra,u “hokimiyat amaldorlari mansablarini qayta ko‘rib,qo‘shin tuzilishini,fuqarolar holatini nazorat qilgan” bo‘lsada,uning qisqa muddatli hukmronlik davrida bu siyosiy harakatlar ijobiy natija bermadi.1605-yilda Boqimuhammad vafot yetgach taxtga uning ukasi,Balx hokimi Valimuhammad(1605-1611yy.)o‘tiradi. Valimuhammad hukmronligi davrida ham Balx va Hirot uchun kurashlar davom yetdi.Bu kurashlarda Valimuhammadning qo‘li baland kelgan bo‘lsada,u 1607-yilda Eron shohi Abbos II bilan sulh shartnomasi imzoladi.Buning natijasida Xuroson butunlay Safaviylar qo‘liga o‘tib ketdi.Natijada busiz ham Valimuhammad saroy ishlariga

⁷Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.-Ташкент.,1956.-с.75.

doimiy aralashib yurgan, ko'p hollarda xonsiz ham qaror qabul qiladigan, o'zlarini siyosiy jihatdan mustaqil deb hisoblaydigan bir guruh buxorolik amaldorlar Valimuhammadga qarshi 1608 yilda fitna uyushtiradilar. Xon Eron shohi Abbos II huzuriga qochib ketadi. Buxoro taxtida yana boshboshdoqliklar boshlanib ketib, 1611- yilning yozida Valimuhammadxon Abbos II yordamida Buxoro taxtini egallashi ham uzoqqa cho'zilmadi. 1611-yilning oktyabrida Samarqand atrofidagi Imomqulixon bilan bo'lgan to'qnashuvda Valimuhammadxon halok bo'ldi. Ashtarxoniylar taxtiga Boqimuhammadning o'g'li Imomqulixon (1611-1642yy) o'tiradi⁸⁸. Bu davrga kelib mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaligi haddan oshib, bu holat ayniqsa o'troq aholi turmush tarziga salbiy ta'sir yetardi. Imomqulixon o'zboshimcha hokimlar harakatini susaytirishga muvaffaq bo'ldi. Imomqulixon Xorazm va Xurosonni qayta qo'lga kiritishga olmagan bo'lsada, Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar, qalmiqlar va boshqa ko'plab ko'chmanchilarga qarshi kurash olib bordi. Ayrim hollarda ularga yon berib, ko'chmanchilar kuchlaridan Eron shohlariga qarshi kurashda foydalandi. Imomqulixon Toshkent shahri va uning atrofidagi yerlarga o'g'li Iskandar Sultonni hokim yetib tayinladi. Ammo toshkentliklar Iskandar Sulton siyosatidan norozi bo'lib isyon ko'tardilar va natijada u o'ldirildi. Buning yevaziga Imomqulixon Toshkentda qirg'inbarot o'tkazganligi manbalardan ma'lumdir. Shunga qaramasdan manbalarning guvohlik berishicha Imomqulixon davrida xon hokimiyatining mavqeyi oshib, ichki vaziyat siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik yaxshilandi. Muhammad Yusuf (ibn Hoji Baqo)ning "Tarixi Muqimxoniy" asarida berilishicha, "Imomqulixon nochorlar ishini engillashtirdi arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo'rchilari bilan bozorlari mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy ahvolidan xabardor bo'lib

⁸⁸Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.-Ташкент.,1956.-с.83.

turardi”⁹⁹.Umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan Imomqulixon 1642-yilda Makkaga haj safariga jo‘nab 1644-yilda Madinada vafot yetadi.Imomqulixondan so‘ng taxtga uning ukasi Nodirmuhammad (1642-1645yy) o‘tirdi. Nodirmuhammadxon bo‘lguniga qadar Balx hokimi bo‘lib ,uzoq vaqt taxtni boshqara olmadi.U hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatdagi ahvol tezda o‘zgarib ketdi.Chunki xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan zodagonlarga yaqinlasholmay,ular bilan til topishao lmadi.Undan tashqari Nodirmuhammadxon mamlakatning ijtimoiy- siyosiy hayotida muhim rol tutgan amirlar va sultonlar mavqyeini cheklash bilan birga mamlakatning asosiy viloyatlarini o‘zining olti o‘g‘li,bir nabirasi va ikki jiyaniga bo‘lib berdi.Jumladan o‘g‘illari Abdulaziz Sultonga Samarqand,Xisrav Sultonga Badaxshon bilan Qunduz ,Baxrom Sultonga Toshkent,Subhonquli Sultonga Balx,Qutluq Muhammad Sultonga Xisor, Abduraxmon Sultonga Shibirg‘onva Andxud ,nabirasi Qosim Sultonga Xuzir,jiyanlari Muhammadyor Sultonga Shahrisabz,So‘fi Sultonga Toliqon berildi. Bunday sharoitda oradan ko‘p vaqt o‘tmay vaziyat keskin o‘zgardi.Saroydagi lavozimlardan ozod yetilgan amaldorlarning noroziligi kuchayib turgan bir paytda mamlakat hududlariga shimoldan ko‘chmanchilar hujumlari boshlandi.Nodirmuhammadxon ko‘chmanchilarga qarshi kurashga o‘g‘li Abdulazizxon boshchiligidagi qo‘shinni jo‘natadi. Oliy hukmdordan norozi bo‘lgan bir guruh amaldorlar 1645-yilning aprelida Uchtepa atrofidagi Yangi saroy degan joyda Nodirmuhammadning katta o‘g‘li Abdulaziz Sultonni xon deb ye‘lon qiladilar .Bu paytda Qarshi dashtlarida ov qilib yurgan Nodirmuhammadxon bu xabarni yeshitib Balxga qochadi. Abdulazizxon hukmronligi davri(1645-1681yy)o‘zaro kurashlar bilan boshlandi.Balxda o‘rnashib olgan Nodirmuhammadxon qolgan o‘g‘illariga va yangi xondan norozi bo‘lgan Buxoro amirlariga tayanib Abdulazizxon hokimiyatni tortib olishga urindi,ammo buning uddasidan chiqa olmadi .Shundan so‘ng Nodirmuhammadxon hind hukmdori boburiy shahzoda

⁹⁹Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.-Ташкент.,1956.-с.83

Shoh Jahondan yordam so‘radi. Bundan foydalangan boburiylar Balx va Badaxshonni egallab, bu hududlarda ikki yil hukmronlik qiladilar. Nodirmuhammad yesa yeron shohi huzuriga qochib ketdi. 1647-yil oktyabrida Abdulazizxon Balxga hujum qilib uni boburiyzodalardan tortib oldi. Nodirmuhammad yesa 1651-yilda haj safariga chiqib yo‘lda vafot yetadi. Abdulazizxon davrida mamlakatda notinchliklar hukm surdi. Ayniqsa Balxda hukmronlik qilayotgan Subxonquli Sulton bilan Abdulazizxon o‘rtasidagi kurash keskinlashdi. Abdulazizxon Balxni Buxoroga bo‘ysundirishga bir necha marta uringan (1652-1657yy) bo‘lsada. Subxonquli Sultonni mag‘lub yeta olmadi. Undan tashqari, oliy hokimiyatning zaiflashgani hamda o‘zaro urushlardan foydalangan Xiva xonlari Buxoroga tez-tez hujumlar uyushtirib turdilar. Ular 1658-yilda Karmana va Vardonzani talon-taroj qilib, 1662-yilda Buxorogacha yetib keldilar. Balx mojarolari 1658-yilda Abdulazizxonning piri Abdug‘afforhojaning aralashuvi bilan biroz barham topgan bo‘lsada, amalda Subxonquli Sulton Balxni mustaqil boshqargan. Xiva bilan uzoq urushlar ustiga mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi ixtiloflarning keskinlashib borishi mamlakat hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Manba tili bilan aytganda Abdulazizxon davrida “Movarounnahr va Balx viloyatlari xorazmliklar va qozoqlar hujumlari tufayli halokat yoqasiga kelib qoldi”. Qarib qolgan Abdulazizxon dushman hujumlarini qaytarolmay qolgandi. Undan tashqari, uning davrida yirik yer egalarining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining kuchayuvi markaziy hokimiyatni yanada zaiflashtirgandi. 1681-yilda Abdulazizxon taxtni ukasi Subxonquli Sultonga topshirib o‘zi haj safariga jo‘naydi¹⁰. Subxonqulixon (1681-1702 yy) hukmronligi yillarida ham mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy vaziyat o‘zgarmadi. Chunonchi, Subxonqulixon davrida uning o‘g‘illari o‘rtasida Balx hokimiyati uchun kurash yanada avj oldi. Bu jarayonda uning o‘g‘illarini Balxdagi obro‘li xonadonlar qo‘llab turdilar. Mahalliy amaldorlar davlat xazinasiga ham soliqlar to‘lamaganlar. Bu holat markaziy hokimiyatning

¹⁰¹⁰Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.-Ташкент.,1956.-с.111.

Balxdagi mavqyeini nihoyatda zaiflashib ketganidan va mahalliy siyosiy kuchlarning,hususan yirik amirlar mavqyei oshib ketganidan dalolat beradi.Yangi hukmdorning hokimiyat tepasiga kelishi Buxoro va Xiva munosabatlarini ham yumshatmadi.Xivaliklar Abdulazizxon va uning o'g'li Anushaxon boshchiligida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlari uyushtirib,shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirdilar.Oqibatda sug'orish ishlari izdan chiqib,dehqonchilikka putur yetdi.Bozorlarda qimmatchilik boshlanib,xalqning ahvoli yomonlashdi.Mana shunday sharoitda Subxonqulixon davlatning bo'shab qolgan xazinasini to'ldirish maqsadida qo'shimcha soliqlarni joriy yetib,bir necha yillik soliqlarni oldindan yig'ib olishga buyruq berdi.Buxoro xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni normal izga solishga harakat qilgan, ashtarxoniylar hukmdorlardan biri bu Ubaydullaxondir.Subxonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon(1702-1711) mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlikni tugatishga hamda markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan so'nggi ashtarxoniylar hukmdori bo'ldi.Uning Samarqand,Xisor,Termiz va Shahrisabzga qilgan yurishlari natijasiz tugagan bo'lsa-da, uzoq,qamalidan so'ng Balxni egallashga muvaffaq bo'ldi¹¹.Manbalarni guvohlik berishicha,Ubaydullaxon Balxni egallagach,qo'shindagi otlar va tuyalar dehqonlar yekinlarini payhon qilmasliklari haqida buyruq beradi.Bu bilan u o'ziga soliq to'lovchi aholi manfaatni ko'zlagan va oddiy aholini o'ziga og'dirishga harakat qilgan.Shunga qaramasdan Ubaydullaxonning mahalliy hukmdorlar hamda amirlar separatik qarshiligini singdirish yo'lidagi ko'plab harakatlari samara bermadi.Ubaydullaxon davlatdagi boshqaruv apparatida islohot o'tkazishga harakat qilib,ko'plab amaldorlarni mansabidan chetlashtirildi.Ularning o'rniga hunarmandlar va savdogarlarning bolalarini mansablarga tayinlashdi.Shuningdek u mamlakatdagi yirik yer egalari bo'lgan jo'ybor shayxlarning soliq imtiyozlarni bekor qildi.Ammo, Ubaydullaxonning bu

¹¹Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.21.

harakatlari unga norozi kuchlarning ko'payishiga hizmat qildi xolos.Ubaydullaxon mustaqil amirlarning iqtisodiy qudratiga zarba berish,davlat xazinasini boyitish,hamda mamlakat moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida 1708 yilda pul islohotini o'tkazdi.Bu islohotga ko'ra,xazinada mavjud kumush tangalar yeritilib,har biridan to'rtta kumush tanga qayta zarb qilindi.Qiymati past bo'lgan yangi tangalar yeski tangalar bilan bir xil muomalada bo'lishini ye'lon qilindi.Ammo,zarb yetilgan past qiymati tangalar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopib qo'yildi.Natijada aholining noroziligi kuchayib,Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi.Bu qo'zg'olon katta qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi ahvol yaxshilanmadi va 1711 yilda Ubaydullaxon fitnaning qurboni bo'ldi¹².Ubaydulaxonning o'limidan so'ng mamlakatda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi.Alohida viloyatlarning harbiy-siyosiy qudrati orta borib Buxoro,Samarqand,Toshkent,Balx,Shahrisabz va Badashxon hokimlari o'zlarini mutlaqo mustaqil hisoblaganlar.Mana shunday sharoitda Buxoro taxtiga 16 yoshli Abulfayzxon (1711-1747 yy)o'tkazildi.Ayrim manbalar Abulfayzxon taxtga o'tirgan paytdayoq Ubaydulaxonning siyosatini davom yettirishga harakat qilganligini tasdiqlasada,uning atrofidagi amirlar bu harakatlar keskin qarshi chiqdilar.Har tomonlama mavqyeiga ega bo'lganAbulfayzxondan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar va oxir oqibatda Abulfayzxon qo'g'irchoq ,hukmdorga aylanib qoldi.Mamlakatdagi turli hukmdorlar o'rtasidagi siyosiy tarqoqlik avj olgan bir sharoitda mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Hakimbiy hokimiyatni egallashga harakat boshladi.Saroydagi otaliq,mansabida bo'lgan Hakimbiy qo'liga hokimiyat o'tishiga ko'pgina amirlar qarshi chiqdilar.Ular orasida Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas 1722—yilda o'zining bir guruh maslakdoshlari bilan asli kelib chiqishi Xiva xonlaridan bo'lgan Rajab Sultonni Samarqand hokimi deb,o'zini yesa “amirlar amiri”deb ye'lon qildi.Rajab Sulton boshchiligida bir nechta o'zbek qabilalari amirlarini birlashtirgan Ibrohimbiy Buxoroga yurish

¹² Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги.-Тошкент:Академнашр,2012.-Б.46-47.

qildi. Bu yurishda Muhammad Hakimbiy mag'lubiyatga uchratgan bo'lsa-da, Rajab Sulton Buxoroni egallay olmadi va qozoq sultonlaridan yordam so'radi. Muhammad Vafo Karmanagiy o'zining "Tuhfat al-xoniy" asarida yozishicha, qozoq sultonlari zudlik bilan Movarounnahrda yurish boshlab, mamlakatdagi siyosiy parokandalikdan unumli foydalandilar. Ular 1723-1729 yillar davomida Zarafshon va Qashqadaryo vohalarining serhosil yerlariga doimiy ravishda talon-tarojlik yurishlari qilib turdilar. Buxoro xonligidagi parokandalik qo'shni yeron hududlarida Nodirshoh (1736-1747 yy) asos solgan Afshoriylar davlati uchun ham nihoyatda qo'l keldi. O'z yerlarini kengaytirib Eron va Afg'onistonda o'z mavqeyini mustahkamlab olgan Nodirshoh, Buxoro xonligi hududlariga harakat qila boshladi. Xususan, 1736-yilda Nodirshohning o'g'li Rizoqul boshchiligidagi qo'shinlar Amudaryodan o'tib Qarshi shahriga hujum qildilar. Bu paytda qarshi hokimi bo'lgan Hakimbiy otaliq Abulfayzxon qo'shinlari Rizoqul qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchradi. Qarshi shahri qamalda qoldi. Bunday sharoitda Xiva xoni Elbarsxon katta qo'shin bilan Abulfayzxon qamalini yordamga shoshildi. Bu xabarni yeshitgan Rizoquli Qarshi qamalini to'xtatib, Eronga qaytishga majbur bo'ldi. 1740 yilda Nodirshohning o'zi katta qo'shin bilan Buxoro xonligi ustiga yurish boshladi. Nodirshoh Chorjo'y atroflaridan Amudaryoni kechib o'tgan paytida Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy uning huzuriga borib o'z xizmatini taklif qildi va Nodirshoh Rahimbiy mang'itni o'z xizmatiga oldi. Muhammad Rahimbiy 1740 yildan boshlab Eronga vassal bo'lgan Abulfayzxon saroyida katta mavqeyega ega bo'lib, 1747 yilda Abulfayzxonga fitna uyushtirilib, o'ldirilgunig aqadar va undan so'ng, oxirgi ashtarxoniylar Abdum'omin (1747-1751 yy), Ubaydullaxon II (1751-1754 yy) va Shergozixon (1754-1756 yy) lar davrida ham amaldagi hokimiyat Hakimbiy qo'lida edi. Shunday qilib, ashtarxoniylar hukmdorlarning hokimlik jilovini qo'ldan berishlari, Buxoro xonligida yangi sulola mang'itlarning hokimiyat tepasiga kelishiga imkon berdi.

I.2. Buxoro xonligida ma'muriy-boshqaruv tizimi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

.Ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi o'z tuzilishi hamda mazmun mohiyatiga ko'ra, Shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq, qilmas edi. Manbalarning ma'lumot berishicha XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora –dargohda mujassamlashib borgan. Shuningdek, shayboniylar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida o'troq turmush tarzi an'analari bilan birga yarim ko'chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan. Bu davrda ham xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal yetilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy yetilib, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbaga qo'shib o'qilardi. Ammo, amaldagi boshqaruvda ko'pgina ashtarxoniylar hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega bo'lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qo'lida qo'girchoq edilar. Nodirmuhammad, Subxonqulixon, Ubaydullaxon kabi xonlar markaziy hokimiyat obro'sini ko'tarishga, bebosh amirlar mavqeyini cheklashga harakat qilgan bo'lsalarda-da, ularning bu xarakatlari deyarli samara bermadi. Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida bo'lgan. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, yasovul, inoq, qirchi, harbiyqozi, harbiy mufti, yeshikogaboshi, mirzaboshi, saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo'lgani ma'lum. Shu bilan birga ularning ayrimlarida sifatiiy o'zgarishlar yuz berganini ham ta'kidlash lozimdir. Azamat Ziyov tadqiqotlariga ko'ra, otaliqning vazifasi XVII asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ashtarxoniylar davrida, ayniqsa Abdulazizxondan boshlab, otaliq markazidagi mavqeyi kuchaya boshladi. Masalan, Abdulazizxon

Buxoro taxtiga chiqqach poytaxtdagi otaliq, vazifasini o'sha paytda eng kuchli mavqyeiga ega bo'lgan Yalanto'shbiyga taklif qilgan. Otaliqning mavqyei Subxonqulixon davrida ham baland bo'lib, eng muhim harbiy ishlar (masalan, xivaliklarning Buxoroga taxdidini qaytarish, Xuroson yurishi) otaliqqa yuklatilgan. "Ubaydullanoma" asarida otaliqqa "umdataal-umaro", yani "butun amirlar tabaqasining tayanchi" degan ta'rif berilgan. Abulfayzxon davridagi otaliq mansabida bo'lgan Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiylar juda katta mavqyeiga ega bo'lib, ular oxir-oqibat sulola vakillaridan hokimiyatni butunlay tortib olishga muvaffaq bo'ldilar. Ashtarxoniylar xususan Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlarida qo'shbegi lavozimidagi amaldorlarning ham mavqyei o'sgan. Aniqrog'i shu mansabdagi shaxsning mavqyei ko'tarilishi bilan u egallab turgan lavozimning ham ahamiyati yuksalgan. Misol uchun , "Ubaydullanoma"da ma'lumot berilishicha, To'raqo'li qo'shbegi boshi mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig'isiz shaxsan yozma ko'rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o'z xohishi bilan ishtirok yetish kabi imtiyozlarga ega bo'lgan. O'sha manba tili bilan aytganda, bu davrda qo'shbegiboshi "amirlarning eng ulug'i" edi. Bu davrda Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqarar edi. Rasmiy darajadagi davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib-markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turishi, xon farmoniga ko'ra harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat bo'lgan xolos. Ko'p hollarda o'zlarini markaziy hokimiyatdan mustaqil deb hisoblagan viloyat amirlari va hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga va harbiy kuchlariga ega bo'lgan. Bu davrda amaldorlar toifasiga kirgan shaxslar o'z egallab turgan lavozimlaridan, ma'suliyatli vazifalaridan tashqari siyosiy jarayonlar va harbiy yurishlarda ham ishtirok yetganlar. Misol uchun manbalarga ko'ra, 1722-yilda Vobkent ostonasidagi Muhammad Hakimbiy otaliq boshchilik qilgan Abulfayzxon va Samarqand hokimi Rajab Sulton

qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvda devonbegi, qo'shbegi, parvonachi, dodxoh, miroxur, yeshikog'aboshi, to'qsabo,d asturxonchi kabi mansabdorlar ham ishtirok yetganlar. Bu davrdagi boshqaruvda dunyoviy lavozimdagi amaldorlar bilan bir qatorda diniy lavozimdagi amaldorlarning ham mavqeyi baland bo'lgan. Boshqaruv tizimida yirik din peshvolari xojalar va diniy mansab egalari bo'lmish shayxulislom, sadr, qozikalon va boshqalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ilgarigi davrda bo'lganidek bu davrda ham davlat boshqaruvida Jo'ybor hojalarining mavqeyi baland bo'lib asosiy diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlangan. Buxoro shayxulislomi ham Jo'ybor shayxlari orasidan tayinlanib, Abulfayzxon davrida bu lavozimni Xoja Yahyoning o'g'li Muhammad Hakim Xo'ja egallagan. Shayxulislom jamiyatda juda katta rol o'ynagan bo'lib, nafaqat diniy balki barcha ishlar bo'yicha hukmdorning doimiy maslahatchisi bo'lgan. Har bir viloyatning o'z qozisi bo'lib, ular diniy, oilaviy, vorischlik hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiqqanlar. Harbiylar uchun ham alohida qozilar bo'lib.Ular qoziyi-askar deb atalgan. Buxoro xonligidagi huquqiy masalalarni hal yetishda muftining o'rni alohida bo'lgan.Mufti fiqh (huquq) va hadisni juda yaxshi biladigan qonunshunos bo'lishi lozim bo'lgan . XVII asrning oxiri-XVIII asr boshlarida davlat hokimiyatining zaiflashuvi oqibatida darvish guruhlarining ham roli ortib borgan. Ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqarib ketdi.XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Fargona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsada, Abulfayzxon davriga kelib Xiva va Qo'qon xonliklari alohida davlat edi. Mavjud manbalarda Buxoro xonligi bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz, Farg'ona amalda yarim mustaqil boshqarilib Buxoroga nomigagina tobe hisoblangan .Avvalgi davrda bo'lganidek, ashtarxoniylar davlati viloyatlar, tumanlar va boshqa ma'muriy

birliklarga bo'lingan. Ashtarxoniylar davrida ham davom yetgan siyosiy parokandalikka, urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga ham ta'sir yetmasdan qolmadi. XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Farg'ona vodiysidagi dehqonlarning o'z yerlaridan qochib ketishi holatlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va o'lponlarni o'z vaqtida va doimiy yig'ib olish uchun ham mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga harakat qilsalarda bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVII asrning boshlariga kelib ko'plab sug'oriladigan yerlar jo'ybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga ko'ra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin bo'lmasada boy amaldor va ruhoniylar yer egalari sug'orish kanallarining xo'jayinlari edilar. XVII asr 80-yillarining oxirlarida Xiva hukmdorlarining ko'plab hujumlari natijasida kelib chiqqan suv ta'minotining buzilishi Ashtarxoniylar davlatidagi ko'pgina viloyatlarda ayniqsa Samarqand, Qarshi, Farg'ona viloyatlarida ocharchilikka sabab bo'ldi. Manba tili bilan aytganda "dehqonlarda tariq va bug'doy noni yo'q"edi. Siyosiy beqarorlik va uzaro urushlar davom yetib turgan og'ir sharoitga ham dehqonlar o'z xo'jaliklarini davom yettirishga harakat qilganlar. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon vohasi edi. So'nggi o'rta asrlar mualliflari boshqa viloyatlarda ham yekinlar va bog'-rog'lar mavjudligi haqida ma'lumotlar beradilar. Misol uchun, Farg'onaning "ajoyib bog'lari va dalalari", Qarshining "sug'oriladigan yerlari", Toshkent vohasining "tog'li g'allakor tumanlari", Termizning "yaxshi qovunlari va g'allasi", Sharisabzning "yaxshi hosil beruvchi yerlari" haqidagi ma'lumotlar bor. Ayrim ashtarxoniylar hukmdorlari davrida mamlakatning asosiy boyligi hisoblangan yerni taqsimlash rasman oliy hukmdor qo'lida bo'lsada, amalda ko'plab davlat yerlari yirik amaldorlar va dinpeshvolari qo'lida edi. Ayniqsa, XVIII asrdan boshlab, yarim ko'chmanchi qabilalar boshliqlari bo'lgan amirlar va beklarning hokimiyati kuchayib, ular amalda yirik hududlarning xo'jayinlari edilar. Shayboniylar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniylar davrida ham davlat yerlari malakai devon, malakai podshohi,

zamini mamla, mamlakai sultoni, mamlaka kabi nomlar bilan atalgan. Oliy hukmdor yerni sotish, hadya yetish yoki vaqf mulkiga o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Shartli yer egalari suyurg'ol.iqto, tanho, tiul, kabi nomlar bilan atalgan. Ta'kidlash lozimki, XVII-XVIII asrlarga kelib suyurg'olning mazmuni o'zgardi. Bu davrga kelib suyurg'ol asosan hukmdor xizmatida bo'lgan ruhoniylar-sayidlar, xo'jalar, shayxlar, ulamolar, shuningdek shoirlarga hadya qilingan. Mahmud ibn Vali shunday ma'lumot beradi: "Agar podsho yerni kimgadir hadya tariqasida bersa, bunday yerlar ulamolar va sayidlarga berilsa, suyurg'ol deyiladi, agar harbiylarga berilsa, u holda tanho deyiladi". Shunday qilib, O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi Ashtarxoniylar davri (1601-1736) boshboshdoqlik, o'zaro kurashlar, mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunmasligi davri bo'lib, Azamat Ziyo ta'biri bilan aytganda, siyosiy beqarorlik taxminan yuz yil o'tib sulola inqirozi hamda davlatning uchga bo'linishi bilan tugadi. Tashqi aloqalar asosan qo'shni hududlar bilan cheklanib qolib, mamlakat jahon texnikaviy taraqqiyotida ro'y berayotgan ko'pgina yangiliklardan chetda qoldi. Shunga qaramasdan madaniy hayotning ba'zi sohalarida (me'morchilik, tarixnavislik, adabiy muhit islom huquqi) taraqqiyot jarayonlari kuzatiladi. Abdurahmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxon" asarida Ashtarxoniylar sulolasi hukmdorlari quyidagicha aks yettirilgan.

- 1.Boqimuhammad 1601-1606 -yy
- 2.Valimuhammad 1606-1611 –yy
- 3.Imomqulixon 1611-1642-yy
- 4.NodirMuhammadxon 1642-1645-yy
- 5.Abdulazizxon 1645-1681-yy
- 6.Subxonqulixon 1681-1701-yy
- 7.Ubaydullaxon 1702-1711-yy

8.Abulfayzxon 1711-1747-yy

9.Abulmo‘min 1747-1751-yy

10.Ubaydulloh 1751-1753-yy

11.Sherg‘ozi 1754-1756-yy

Bu sulola vakillaridan, ayniqsa Nodir Muhammad, Avdulazizxon va Subxonqulixon davrida mamlakatda siyosiy vaziyat izdan chiqdi, mahalliy kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda hokimiyatning asosiy tayanchi din peshvolari edi. Shu sababli bu davrda yer maydonlari ommaviy ravishda diniy mahkamalar va yirik ulamolar ixtiyoriga o‘ta boshladi. Mamlakatda kuchaygan diniy mutaassiblik dunyoviy taraqqiyotni bo‘g‘alar,davlat va jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilar edi.Subxonqulixon davrida xivaliklar tomonidan Zarafshon va Qashqadaryo vohasiga uyushtirilgan talonchilik urushlari natijasida vayronganchiliklar bo‘lib,xalqning iqtisodiy hayoti yomonlashdi.Soliqlar oshirilib,7-yillik soliqlar birdaniga yig‘ib olin boshlandi.XVIII asr boshlariga kelib Ashtarxoniylar davlati inqirozi yanada kuchaydi.Ubaydullaxon davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga mamlakatdagi boshboshdoqliklarni tugatishga harakat qilindi.1708-yilda Ubaydullaxon o‘tkazgan pul islohoti siyosiy-iqtisodiy vaziyatni chigallashtirdi.Ubaydullaxon o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan Abulfayzxon davrida siyosiy parokandalik avj oldi,buning oqibatida Abulfayzxon saroy fitnasi orqali o‘ldirildi.Hokimiyatni Muhammad Rahim mang‘it egalladi.Garchand taxtga Abulfayzxondan so‘ng Abulmo‘min(1747-1751).Ubaydullaxon II(1751-1754).Sherg‘ozixon(1754-1756)Buxoro taxtiga rasman o‘tqazilsada,amalda davlat boshqaruvi butunlay Muhammad Rahim mang‘it qo‘lida bo‘lgan.Bu holat 1756 yil dekabrda Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola-mang‘itlar hukmronligini kelishiga asosiy sabab edi.Ashtarxoniylar davlat tizimi o‘z tuzilishi va mohiyatiga ko‘ra Shayboniylar hokimiyati kabi edi.Markaziy boshqaruv asosan xon saroyidagi amaldorlar

qo'lida bo'lib eng katta mavqye egasi otaliq bo'lgan. Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunish, belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turish xon farmoniga ko'ra harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat edi. Viloyat hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga va harbiy kuchlariga ega edi. Ashtarxoniylar davrida harbiy va ma'muriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari-xojalar va diniy mansab egalari-shayxul-islom, qozikalon, sadr va boshqalarning ahamiyati katta bo'lgan. Davlat boshqaruvida Jo'ybor xojalarining mavqyei ham bu davrda yuqori bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular orasidan tayinlangan. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligining avvalgi hududi keskin qisqardi. XVII asr boshlarida xonlikka bo'ysunuvchi 6 ta viloyat (Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz, G'uzor) mavjud edi. Keyinchalik Imomqulixon davrida Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx, viloyatlari qayta bo'ysundirildi. Ammo bu paytda Hirot, Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketgan edi. Viloyatlar o'z navbatida tumanlarga, qasabalarga, qishloqlarga bo'lingan edi. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy tabaqalar shayboniylar davrdagi kabi nomlangan bo'lsada, ularning mavqyeyida o'zgarishlar yuz bergan. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda, harbiy ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari fikri bilan hisoblanishga majbur bo'lib, bu esa ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda Jo'ybor xojalari avlodlarining mavqyeyi yanada oshdi. Asosiy soliq to'lovchi tabaqa – raiyat ahvoli og'irlashib bordi. Ijtimoiy tabaqaning eng pastida turgan qullarning ayniqsa, saroy xizmatchisi qullarning mavqyeyi ham oshib, xonning va yirik amaldorlarning qullariga, ba'zi hollarda amaldorlik ham tayin yetildi (Muhammad Vafo Karmanagiy "Tuhfat ul-xoniyy"). Xonlarning shahsiy qo'riqchilari ham qullardan iborat edi. Ashtarxoniylar davrida o'zaro urushlar nihoyatda ko'p bo'lganiga qaramay, harbiy sohada biror marta islohot olib borilmagan. Zamonaviy qurollar hisoblangan zambaraklar, miltiqlar bilan qo'shinning ta'minlanishi yomon

ahvolda edi.Qo'shin tarkibiga urush paytlari oddiy fuqarolar ham jalb yetilgan,uyushgan markaziy harbiy qo'mondonlik bo'lmagan.Faqat Imomqulixon davridagina qo'shinning jangovor qobiliyati bir muncha oshardi .Ashtarxoniylar davri iqtisodiyot inqirozli ahvoli bilan alohida ajralib turadi.Kishloq xo'jaligi o'zaro urushlar natijasida rivojlanmadi.yerga egalik quyidagi mulkchilik shakllariga ega edi.

1.Mulki sultoniylar- xon va xon xonadonining shaxsiy boyligi

2.Suyurg'ol,iqto,tanho-harbiy-ma'muriy amaldorlar mulki

3.Vaqf yerlari –diniy amaldorlar mulki

Chorvachilik ashtarxoniylar davrida qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan.Xunarmandchilik shahar va qishloqlarda rivojlana boshlagan.To'qimachilik (ip yigirish,gazlama tayyorlash ,tayyor kiyimlar tikish,kulolchilik metall yoki yog'och ishlovi,o'ymakorlik rivojlangan.Bu davrda tashqi savdo aloqalarini ham rivojlantirdi.Xususan Rossiyaning Astraxan,Orenburg,Sibirdagi shaharlariga .Hindiston,Eron.Koshg'ar.Turkiya bozorlariga mahsulotlar olib borilgan.Bundan tashqari Rossiyaga Osiyo va Sharq mamlakatlari tovarlarini olib borishdan ham O'rta Osiyo savdogarlari katta rol o'ynar edi.Ashtarxoniylar davrida soliqlar davlat xazinasini boyitishning yagona usuli hisoblangan.Soliqlar soni va miqdori haddan ziyod edi.Masalan,Subxonqulixon davrida bir yilda 7 yillik soliq yig'ilib olinishi to'g'risida farmon qabul qilingan.Bu yesa aholi turmush darajasining o'ta yomonlashuviga olib kelgan.Asosiy soliq to'lovchilar – raiyat(dehqonlar,hunarmand,savdogarvachorvador) hisoblangan.Bu sulola davrida diniy amaldorlarining mamlakat boshqaruvidagi yuqori nufuzi diniy aqidaparastlikka,milliy tengsizlikni kuchayishi ,ijtimoiy fikr va dunyoviy fanlar taraqqiyotining bo'g'ilishiga sabab bo'ldi.Bir vaqtlar fan va madaniyat beshigi bo'lgan.Movarounnahr iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq o'lkaga aylandi.Bu

davrda 150 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatsa-da,dunyo talabiga xos bilimlar berishdan ojiz edi.Ammo.tibbiyotining sharq tabobati usuli zamonaga mos ravishda rivojlangan.Xususan,Subxonqulixon davrida tibbiyotga asoslangan madrasa va shifoxona faoliyat ko'rsatgan.Shuningdek,ijtimoiy fanlar sohasida ham rivojlanish davom ettirildi.Buxoro xonligida yuzaga kelgan siyosiy inqiroz shayboniylar sulolasining barxam topishiga olib keldi.Bu vaqtda Buxoroda yashab turgan va shayboniylarga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan Jonibek sulton xonadoni vakillari taxt uchun asosiy da'vogar bo'lib siyosiy maydonga chiqdi.Jonibek sulton Jo'jining o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodlaridan bo'lib, uning ajdodlari Dashti qipchoqning g'arbida, Hoji Tarxon(Astarxan)da hukmronlik qilganlar.Rus davlatining markazlashuvi va yerlarining qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirilishi jarayonida 1556-yilda Astraxan ham rus podshosi tomonidan bosib olindi.Shahar hukmdori Yormuhammad o'z oilasi bilan Buxorodan panohtopadi.Keyinchalik Buxoro xoni Iskandar sultonining qiziga uylangan.Yormuhammadning o'g'li Jonibek Sultonxon xonadoniga yaqinlashdi, uning farzandlari esa Abdullaxon II davrida yuqori martabalarga yerishadilar.Shayboniylar sulolasi tanazzulga yuz tutib,taxtni boshqaradigan sulola vakili qolmaganligi tufayli Buxoro ulamolari va amirlar kengashgan holda taxtni Ashtarxoniylar Jonibek sultonga topshiradilar.Biroq u chingiziy bo'lishiga va taxtni boshqarish huquqiga to'la imkoni borligiga qaramasdan,taxtga Abdullaxon xonadoniga yaqin bo'lganlar ko'proq haqli deb hisoblaydi va uning jiyanlari,ayni vaqtda o'z o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechadi.Shu tariqa Buxoro xonligi taxtiga yangi sulola— Ashtarxoniylar (sulola asoschisi nomi bilan Joniylar deb ham yuritilgan)sulolasi keladi.Bu vaqtda taxtni egallashi lozim bo'lgan katta o'g'li Dinmuhammad xonlikning janubi-g'arbiy viloyatlarida noib bo'lib,Niso va Obivardda hokimlik qilardi.Buxoroda yuzaga kelgan vaziyatdan xabar topgan eronliklar harbiy yurish boshlab, chegara hududlariga xavf sola boshlaydilar va Obivardni qamal qiladilar.Dinmuhammad dushmanga qarshi bir necha kun jang olib boradi va

ko'zidan hamda oyog'idan yarador bo'ladi,Buxoroga qaytishda yo'lda duch kelgan qaroqchilar tomonidan o'ldiriladi.Dinmuhammad halok bo'lgach, taxtga uning ukasi bu vaqtda Samarqand hokimi bo'lib turgan Boqimuhammad (1601-1605 yy) o'tkaziladi.Boqimuhammad yangi sulolaning birinchi vakili sifatida taxtga chiqqan bo'lsada hozircha rasmiy hokimiyat Jonibek sulton izmida bo'lib,uning nomidan ish yuritilgan,farmonlar,chiqarilgan va tangalar zarb etilgan,uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan.Boqimuhammadning davlat tepasiga kelishi va Buxoro xonligida yangi sulolaning hokimiyatni egallashi bilan amalda katta o'zgarishlar sodir bo'lmadi.Abdullaxon II ning o'limi va shayboniylar sulolasining so'nggi vakillari davrida boshlangan o'zaro ichki kurashlar va siyosiy tarqoqlik yanada kuchaya boshladi.Shuning uchun yangi hukmdor oldida turgan eng muhim vazifalardan biri mamlakat hududiy yaxlitligini saqlab qolish va markaziy hokimiyatni kuchaytirishdan iborat edi.Ayniqsa Marv va Balx hokimliklari ,turkmanlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik bilan birga atrof viloyatlarga ham bosqinchliklar uyushtira boshladilar.Bu holatni bartaraf yetish uchun 1602-yilda Balxga harbiy yurish uyushtirdi.Bu yurishda qo'shinga qo'mondonlik qilgan ukasi Valimuhammad juda katta jonbozlik ko'rsatib Balxni,shuningdek Anduxo'y,Shibirg'on va Murg'ob daryosigacha bo'lgan katta hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi.Bundan ruhlangan Boqimuhammad Valimuhammadni taxt vorisi deb e'lon qiladi va o'zi Buxoroga qaytadi .U 1605-yilda kasallanib vafot yetadi, taxtga Valimuhammad o'tiradi.Valimuhammad(1605-1611yy) ham akasi kabi eng avvalo janubi sarhadlarni mustahkamlashga va safaviylardan yordam olib, Buxoroga hujum qilayotgan qabilalarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi.Ayni vaqtda ichki siyosiy vaziyat ham keskinlashib, bir qator o'zbek beklari markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh torta boshladilar, mamlakatning hududiy yaxlitligi xavf ostida qola boshladi.Dastlab Eronga qarshi yurish qilib,g'alabaga erishgan Valimuhammad Hirotgacha bo'lgan hududlarni xonlikka bo'ysundiradi.Eron shohi Abbas bilan tuzilgan sulh esa mahalliy

hukmdorlarning noroziligiga sabab bo'ladi, oqibatida 1608-yilga kelib Valimuhammaddan norozi guruh shakllanib qoladi, ularning ham asosiy maqsadi xonni taxtdan tushurib uning o'g'li Samarqand hokimi Imomquli sultonni taxtga o'tkazish edi. 1611-yilda Imomqulixon va Valimuhammad o'rtasida bo'lib o'tgan jang natijasida Valimuhammad mag'lubiyatga uchrab, Eronga qochishga majbur bo'ladi. Taxtni Imomqulixon (1611-1642 yy) egallaydi. Ko'p o'tmay shoh Abbos qo'shinlari yordamida taxtni qaytarib olish uchun jang boshlagan Valimuhammad yana jangda yengiladi va asir olinib, qatl (1611-yilda) etiladi. Imomqulixon hukmronligi davrida xonlikning Xurosondagi janubiy sarhadlari davlat tarkibidan chiqib, shunga qaramasdan yangi xon ichki siyosiy beqarorlikni bartaraf etish va mamlakat sarhadlarini shimoliy-sharqqa tomon kengaytirib borishga katta e'tibor qaratdi. Toshkent va uning atroflari xonlikka bo'ysundirildi. 1612-yil Imomqulixon Toshkentni egallab, o'g'li Iskandar sulton hokim etib tayinladi, biroq shahar aholisi uning nojo'ya hatti-xarakatlaridan norozi bo'lib isyon ko'tardi va uni o'ldirdi va bundan g'azablangan Imomqulixon Buxoro, Balx va Badaxshon viloyatlaridan qo'shin yig'ib kelib Toshkent aholisini qirg'in qilgan Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy vaziyatni izga solgach, tashqi siyosatga ham katta e'tibor bilan qaradi. Uning hukmronligi davrida Hindiston, Eron, Rossiya davlatlari bilan elchiliklar amalga oshirildi. 1642-yilda sog'lig'i yomonlashganligi tufayli taxtni ukasi Nodirmuhammadga topshiradi va o'zi haj safariga jo'naydi va safarda vafot etadi. Keyingi yillarda hukmronlik qilgan Nodirmuhammad (1642-1645 yy) Abdulazizxon (1645-1681 yy) Subhonqulixon (1681-1702 yy) hukmronligi davrida ichki siyosiy vaziyat yanda keskinlashib bordi. Ichki kurashlar bilan bir qatorda Xiva xonligi, qozoq sultonlari va Eronga qarshi bir necha marotaba harbiy to'qnashuvlar yuz berdi. Ayni vaqtda shayboniy Abdullaxon II hukmronligi yillarida katta mavqeyga erishib olgan Jo'ybor xojalari va boshqa din peshvolarining mamlakat siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib bordi. XVIII asr boshlariga kelib, mamlakatdagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi, urug' va

qabila boshliqlari birga mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaligi va markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortishi holatlari avj oldi, mamlakat siyosiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Bu holatni bartaraf etish uchun kurashgan ashtarxoniylarning eng so'nggi vakili Ubaydullaxon (1702-1711 yy) edi. U vaziyatni tinch yo'l bilan, iqtisodiy choralar yordamida amlaga oshirish siyosatini qo'lladi va 1708-yilda pul islohoti o'tkazdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bebosh o'zbek amirlarining iqtisodiy erkinligini cheklash va shu yo'l bilan ularni hokimiyatga bo'ysundirish, ayni vaqtda esam amlakat xazinasini ham to'ldirish edi. Biroq bu islohot ko'zlangan natijani bermadi va aksincha markaziy hokimiyatdan norozilik va boshboshdoqlik yanada avjga chiqdi. Ko'pgina mahalliy hukmdorlar va din ulamolari o'zlari egallab turgan mulklarini mustaqil deb e'lon qilish yo'lini tutdilar. Bularning orasida eng jiddiy voqeya Farg'ona vodiysining xonlik tarkibidan chiqishi va o'zini mustaqil deb e'lon (1709-y) qilishi ichki siyosiy vaziyatni yo'lga sola olmadi. Abulfayzxon ham mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatni yo'lga sola olmadi. Abulfayzxon hukmronligi yillarida (1711-1747 yy) ichki siyosiy vaziyatning keskinligi saqlanib qolishi bilan birga tashqi dushmanlarning ham davlat mustaqilligiga tajovuzi kuchayib bordi. Buxoroning o'zida markaziy hokimiyat amlada bir guruh o'zbek urug'lari amirlari, xususan Javshin qalmiq, Ma'sumbiy otaliq, Hakimbiy otaliq qo'lga o'tib qolgan edi. Buxoroda katta mavqyega ega Hakimbiy otaliq mang'it bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Shahrizabz mulki hokimi Ibrohim miroxur kenagas 1716-1719 yillarda Buxoro va Qarshiga hujum uyushtirdi. Bu to'qnashuvlar Ibrohim kenagasga muvaffaqiyat keltirmagandan so'ng u Niyozxoja qatag'on, Qoplonbiy qipchoq, Avazbiy to'qsoba kabilar bilan birlashib, 1722-yilda Xiva shayboniylari xonadoniga mansub Rajab Sultonni Samarqandda xon etib ko'tardilar. Bu xonlik mustaqil holda 1730-1731 yillargacha hukm surdi. Ayni vaqtda qozoq sultonlari ham Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga bir necha marta (1723-1729 yy) bosqinchlik hujumlari uyushtirdilar. Buxoro xonligining ichki siyosiy

hayotini diqqat bilan kuzatib turgan yeronliklar XVIII asrning 30-yillarida xonlikka tajovuz qila boshlaydilar. Eron shohi Nodirshoh va uning o'g'li Rizoquli boshchiligidagi Eron qo'shinlarining 1736-1740 yillarda amalga oshirgan bosqinchligi natijasida Buxoro xonligi qisqa vaqt Eron ta'siriga tushib qoladi. Vaziyatdan foydalangan mang'it amirlari Hakimbiy otaliq boshchiligida hokimiyatni o'z qo'llariga olishga intildilar va 1747-yilga kelib o'z maqsadlariga yerishadilar. Abulfayzxon o'ldirilib, ashtarxoniylar sulolasiga barham beriladi va taxt amalda mang'it amirlari hukmi ostiga o'tadi. Eroniylar Balxni qozoq sultonlari o'z manfaatlari yo'lida Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar Buxoroning zodagon guruhlarini astraxanlik Jonibek sultonni taklif qildilar. Jonibek sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar Balxni eroniyatlardan, Toshkentni qozoqlardan tortib oldilar. Ammo ko'pgina urushlarga qaramay Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Ayrim ashtarxoniylar hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642 yy), Abdulazizxon (1645-1680 yy), Ubaydullaxon (1702-1711 yy) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchant harakat qilinmasin, bu harakatlar aytarli ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar va hududlarida hokimlik qilib, bu hududlarda yirik yer egalari bo'libgina qolmay, butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruhlarini kuchiga tayanib markaziy hokimiyatga deyarli bo'ysunmas edilar. Hukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga yurishlaridan ko'p foydalandilar. Abulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747 yy) markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yo'qotib bordi. Hokimiyat asta-sekinlik bilan mang'it urug'lari qo'lga o'ta boshladi. Bu urug vakili bo'lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tirdi. Xorazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Unga shayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525 yy) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. o'zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib

turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi. Xon hokimiyati qabila zodoganlari bilan cheklangan bo'lib, nizolar va o'zaro urushlar deyarli tinmagan. Shu davrda Xorazm chuqur inqiroz davrini boshidan kechirdi. Savdo-sotiqning arziyas darajasida yekanligi shahar hayotini sust rivojlantirdi. Bu jarayon XVII-XVIII asr boshlarida ham davom yetdi. XVII asr oxiri-XVIII asr boshlariga oid Xorazm haqidagi ma'lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta'kidlandi. Xususan, Abdulg'azi Bahodirning "Shajarai turk" asarida, Ivan Fedotov ma'lumotlarida bu holat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir qushbegi bilan birgalikda xon maslaxatchilari, inoqlarning borligi ma'muriy tuzumining juda murakkabligidan darak beradi. Xo'jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o'zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623 yy) va uning o'g'illari davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643 yy), Abdulg'ozixon (1643-1663 yy), Anusha (1663-1687 yy) lar davrida Buxoro bilan Xiva o'rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo'lib o'tdi. Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Bu davrda Farg'ona xonlikdan alohida o'lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasidan bo'lgan Shohruhbiy Farg'onada hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini, yettisuving bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib qoldi. XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm, ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo'linib ketishning asosiy sababi bo'ldi. 1722-yildagi Rajabxon qo'zg'oloni Buxoro xonligini larzaga soldi. Abulfayzxon (1710-1747 yy) davrida Buxoro xonligi shu darajada parokandachilikni boshidan kechirdiki Eron shohi Nodirshoh 1710-yilda Buxoroni, keyin Xorazmni bosib oldi. Buxoroliklar va xorazmliklarni yeroniylar talab, xonavayron qildilar. 1747-yilda Nodirshoh vafotidan keyin Abulfayzxon ham o'ldirildi. Ashtarxoniylar xukmronligi davriga oid yozma manbalar ichida Maxmud ibn vali (1595-1640) ning "Baxr ul-

asror fi manokib ul-axer” (Olijanob kishilarning bahona haqida sirlar dengizi),Mir Muhammad amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”,Muhammad Yusuf Munshining”Tarixiy Mukimxoniy”,Xo‘ja Samandar Termiziyning”Dastur al-Mulk”,Abulg‘ozi Bahodurxonning”Shajarai Turk”,Muhammad Amin Buxoriyning”Muhit ut-tavorix”,Muhammad Vafo Karmanagiyning”Tuhfat ul-xoniy”,Abdurahmon Tol‘e (Abdurahmon Davlat)ning”Tarixi Abulfayzxon”asarlari muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.Shuningdek,1605 yilda yozilgan Muhammadyor ibn Arab qalamiga mansub”Musaxxir ul-bilod” (mamlakatlar fatxi)1569 yilda yozilgan.Sulton Muhammad Balxiy qalamiga mansub”Majma‘ul-g‘aroyib”,1616-1629 yillarda yozilgan Iskandarbek munshiy qalamiga mansub”Tarixi olama toyi abbosiy”,Juybor shayxlari tarjimai holidan iborat,juybor xojalaridan biri Tojiddin Xasannning o‘g‘li Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy tomonidan 1663 yilda yozilgan”Matlabul-tolibin” (Toliblar matlabi), Ashtarxoniylar sulolasiga mansub shahzoda xoja Mir Muhammad Salim tomonidan 1730 yilda yozilgan,hozirda yagona hisoblangan nusxasi Buyuk Britaniyadagi Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan”Silsilat ul-salotin”,kabi asarlari ham ashtarxoniylar davri tarixi ,siyosiy va iqtisodiy ,madaniy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda katta yordam beruvchi asarlar va muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.Ashtarxoniylar Jo‘jixonning o‘n uchinchi o‘g‘li To‘qay Temur avlodidan bo‘lib,XV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxon (Xoji Tarxon)da hukmronlik qilganlar.Bu shahar Ivan Grozniy tomonidan 1556 yilda egallangach ,sulola yetkachisi Yor Muhammad o‘z yaqinlari bilan Buxoroga kelib joylashdi.Buxoro xoni Iskandarxon tomonidan iliq kutib olingan Yormuhammadning o‘g‘li Jonibek sulton tez orada xonning qizi Zuhro Begimga uylanadi va shu tariqa Ashtarxoniylar (Xoji Tarxoniklar)Shayboniylar bilan yaqin qarindosh bo‘lib qoladilar.Jonibek sulton va uning o‘g‘illari (Dinmuhammad,Boqimuhammad,Valimuhammad)Abdullaxon II hukmronligi yillarida yuksak mavqeyilariga ega bo‘lgan edilar.Abdulazizxon II o‘limidan

so'ng taxt uchun bo'lgan kurashlarda Shayboniylar urug'i butunlay qirilib ketadi. Abdullaxonning yagona o'g'li Abdulmo'min 1598 yil 8 fevralda amir Muhammad Boqiy bilan kelishib, o'z otasini zaharlab o'ldirtiradi. Balxdan Movarounnahrğa yetib kelib otasining yemuqdoshi Qulbobo ko'kaldoshni, amakisi Do'stim Sultonni, uning o'g'illarini o'ldirtiradi. Lekin olti oy o'tgach, Zomindan Samarqandga kelayotganda otasinning amirlaridan biri Abdulvos'e tomonidan otib o'ldiriladi. Undan keyin taxtga chiqarilgan Pirmuhammad ham 1601 yilgacha taxtni boshqaradi. Natijada yirik o'zbek qabilalari boshliqlari tomonidan Jonibek Sulton Buxoro taxtiga taklif etiladi. Jonibek Sulton Xurosonda hokimlik qilayotgan o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Lekin Dinmuhammad Buxoroga kelishda qizilboshlar bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi va taxtga uning ukasi Samarqand hokimi Boqimuhammad o'tqaziladi. (1601-1606) lekin rasman hokimiyat Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb yetilgan va nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Boqimuhammada ichki siyosiy nizolarga chek qo'yish maqsadida ko'plab urushlar olib boradi. Biroq Xorazm va Xurosonning katta qismi ashtarxoniylar qo'lidan chiqib ketadi. Valimuhammad (1606-1611) hukmronligi yillarida ham ichki kurashlar kamaydi va markaziy hokimiyat zaiflashdi. Valimuhammad fitna oqibatida o'ldirilgach, taxtga Boqimuhammadni o'g'li Imomqulixon (1611-1642) chiqdi. Imomqulixon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga va o'zaro qarashlarga chek qo'ygan bo'lsada, Xuroson va Xorazmni qaytarib olishga erisha olmadi. Undan keyin taxtga o'tirgan Nodirmuhammad (1642-1645 yy), Abdulazizxon (1645-1681 yy) va Subhonqulixon. (1681-1702) davrida mamlakatdagi siyosiy hayot yana izdan chiqdi. XVIII asr boshlariga kelib, Ashtarxoniylar davlatdagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Bu sulola xonlari yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamoman tobe bo'lib qoldilar. Bunday siyosiy boshdoqliklarga chek qo'yishga intilgan so'nggi ashtarxoniyyon Ubaydullaxon (1702-1711) edi. Ubaydullaxon bebosh o'zbek amirlarining iqtisodiy kuchini

susaytirish,davlat xazinasini to'ldirish va mamlakatning moliyaviy ahvolini yaxshilashga urinib o'tkazgan pul islohoti (1708)siyosiy-iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi.Past qiymatli pullarning zarb yetilishi oqibatida Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi.Qo'zg'olon qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsada,mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat yaxshilanmadi.Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib ,taxtni Ashtarxoniylar sulolasining xoni Abulfayzxon (1712-1747) egalladi.Uning hukmdorligi davrida mamlakatda qabila boshliqlari ,viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi.Amaldorlar fitnasi avj oldi.Natijada Abulfayzxon ham Ubaydullaxon kabi o'z shaxsiy qo'riqchilarini rus va kalmik qo'llaridat uzishga majbur bo'lganligi manbalarda ta'kidlanadi.Buxoroda markaziy hokimiyat amalda bir guruh saroy amaldorlari qo'lida edi.Bu davrda ularning Shahrisabz viloyati hokimi bilan munosabatlari keskinlashib ketadi.Buxoroda hokimiyat egasi bo'lib qolganHakimbiy mang'it bilan dushmanchilik kayfiyatida bo'lgan Ibrohim Miroxur kenagas boshchiligidagi Shahrisabzliklar 1716 va 1719 yillarida Qarshiga va Buxoroga hujum qiladilar.Bu hujumlar natijasiz tugagach,Ibrohim kenagas tarafdorlari Niyozxoja katag'on ,Qoplon,qipchoq,Abaz To'ksoba va boshqalar bilan birlashib,1722 yil Samarqandda Xiva xonlari avlodidan bo'lgan Rajabxon qadimiy odatga ko'ra Ko'ktoshga o'tkazishdi va xon deb e'lon qilishdi.Shu tariqa mustaqil Samarqand xonligiga asos solib va bu xonlik 1730-1731 yillarga ham mavjud bo'ldi.Bu ishlarga boshchilik qilgan Ibrohim kenagas Buxoro xonligini butunlay tugatishga intilgan edi.Mamlakatda yuzga kelgan qo'sh hokimiyatchilikdan qozoqlar unumli foydalandilar 7 yil davomida (1723-1729) Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini talon-taroj qildilar.Buxoroda ham Samarqandda ularni qaytarishga qodir kuch topilmadi.Natijada Samarqand va Shahrisabzda bir necha yil davomida hayot to'xtab qoldi.Buxoroda Arkdan tashqari ikkitagina mahallada aholi qoldi.Mamlakat iqtisodiy va siyosiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi.Bunday siyosiy parokandalikdan boshqa bir tashqi dushman-Eron shohi Nodirshoh foydalandi.Buxoroning Nodirshoh tomonidan

bosib olinishi Muhammad Qosimning (1720-1750) “Nomayi olamatoyi Nodiri” (Nodirshohning olamni bezovchi tarixi) asarida batafsil yoritib berilgan. 1736 yil Nodirshohning o‘g‘li Rizoquli boshchiligidagi eron qo‘shinlari Amudaryodan o‘tib Qarshiga yurish qiladilar. Bu vaqtda Qarshi hokimi bo‘lgan Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon dan yordam so‘raydi va katta qo‘shin yetib kelgan Abulfayzxon jangda yengilib, Qarshi shahri qal’asiga berkinib oladi. G‘uzor va boshqa joylarni egallagan eronliklar Qarshini qamal qiladilar, biroq Nodirshoh buyrug‘i bilan yana Eronga qaytib ketadilar. Oradan uch yil o‘tib, 1740 yilda katta qo‘shin bilan Nodirshohning o‘zi yurishi qilib keladi va Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand va Xisorni egalladi va katta o‘ljalarni olib ketdi. Bu yurish vaqtida Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy Nodirshoh xizmatiga kirgan edi. 1747 yilda Nodirshoh yana Movarounnahr ga hujum qilib, Toshkent, O‘tror, Turkistonni egalladi. Shu yili saroy fitnasi oqibatida Abulfayzxon o‘ldirildi va hokimiyatni amalda Muhammad Rahim Mang‘it egalladi. So‘nggi ashtarxoniylar Abulmo‘min (1754-1756) Buxoro taxtiga rasman o‘tkazilgan bo‘lsalarda, amalda davlat boshqaruvi butunlay Muhammad Rahim Mang‘it (1756-1759) qo‘liga o‘tib qolgan edi. U 1756 yil dekabrda rasman Buxoro taxtiga o‘tkazildi va shu tariqa Buxoro xonligida yangi sulola-mang‘it amirlari sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida markaziy hokimiyat bir muncha zaiflashdi va buning oqibatida mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy hamda madaniy hayotda nisbatan inqiroz holatlari yuzaga keldi. Bu davrda shayboniylar davridagi ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo‘lsada, ularning mavqeida bir muncha o‘zgarishlar yuz berganligi ko‘zga tashlandi. Ashtarxoniylar davlatida oliy taxt Buxoro shahri bilan birgalikda valiahd tomonidan boshqarilgan Balx shahrining ham nufuzi ortdi va mamlakatning siyosiy hayotiga kuchli ta’sir eta boshladi. Otaliq va o‘zbek qabila boshliqlarining nufuzi ortib ketdi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko‘p hollarda harbiy-ma’muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo‘lib bu

ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda juybor xo'jalirinning avlodlari bo'lgan ulamolar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotidagi mavqeyi yanada oshdi. Siyosiy parokandalik, muttasil davom etib turgan o'zaro ichki kurashlar va fitnalar xalqni iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yish bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy holatni ham inqirozga olib keldi. Shuningdek, tashqi hujumlar, talon-tarojlar natijasida dehqonchilik vohalari harob holga kelib qoldi, savdo karvonlarini talash hollari ko'payib ketdi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aloqalarning cheklanishiga olib keldi. Ashtarxoniylar xonlaridan Imomqulixon bu holatlarning oldi olishga harakat qildi va 1614-1615 yillarida Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazdirdi. 1633-1634 yillarida esa Qushqo'rg'onda kanal qazdirdi. Biroq bu ham inqirozli holatlarning oldini ololmadi. Bu davr dehqonchiligida o'rta asrlarga xos yer egaliga hamda iqtisodiy munosabatlari saqlanib qolindi. Garchi avvalgi xonlar davrida iqtisodiy ahvol bir muncha yaxshi ahvolda saqlangan bo'lsada, XVII asr ikkinchi yarmiga kelib, mamlakatdagi iqtisodiy ahvol tanazzulga uchray boshladi. Yerlarning eng hosildor qismi avvalgidek yirik amaldorlar va din peshvolari qo'lida saqlanib qoldi. Asosiy soliq va yig'implari qishloq kambag'al dehqonlaridan yig'ib olinardi. Ashtarxoniylar davrida sug'oriladigan yerlarda O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz yekinlari, dashti yerlarida va tog' oldi xududlaridagi lalmi yerlarda bug'doy, arpa, kunjut, tarvuz, qovun va boshqalar yekildi, dehqonchilik qilingan. Manbalarda qayt etilishicha o'zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini bir muncha orqaga surib turgan bo'lsada, tinchlik davrlarida dehqonchilik orqasida yerlardan ancha yuqori hosil olingan. Dehqonchilik mahsulotlari ichki tarib talabni to'la qondirib, tashqi bozorga ham chiqarilgan. Bu mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib saqlab turgan asosiy omil edi. Chorvachilik ham mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biri sanalgan. Chorva mollari yetishtirish bilan bir qatorda ularni tashqi savdoga ham

chiqarganlar, transport va yer haydashishlaridaxo‘kizlar,otlar,ikki o‘rkachli tuyalardan keng foydalanganlar.Xunarmandchilikning markaziy shaharlari bo‘lgan bo‘lsada,bu davrda inqirozli holatlarning kuchayishi oqibatida qishloqlarda ham hunarmandchilik va kerakli buyumlarni ishlab chiqarish bir muncha kengaydi.Hunarmandchilikda asrdan-asrga o‘tib kelayotgan yetakchi an'analar saqlanib qolindi va ularning rivojlantirilishi bilan birga mahalliy hususiyatlarning ham ta'siri ortib borgani kuzatiladi.Mamlakat ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qolgan bo‘lishiga qaramay, savdo –sotiq ishlari bir muncha saqlanib qoldi.Asosiy savdo markazlari Buxoro,Samarqand,Qarshi,Toshkent,Balx va boshqa yirik shaharlarda savdo-sotiq ishlari ancha kengaydi.Shuningdek,bu davrda tashqi savdo aloqalari ham bir muncha rivojlandi.Xususan,Rossiyaning turli savdo shaharlari,Hindiston,Eron,Qoshg‘ar,Turkiya bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi.Tashqi bozorga asosan turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari,hunarmandchilik buyumlari va boshqalar chiqariladi.Paxta,teri,jun,turli matolarning eng asosiy haridori Rossiya hisoblanardi.Shuningdek.Rossiya va Hindiston o‘rtasidagi savdo-sotiq ham O‘rta Osiyo savdogarlari katta o‘rin tutardilar.Buxorolik savdogarlar alohida imtiyozlarga ega edilar.Tashqi savdo ishlarida hukmdorlarning o‘zlari ham faol ishtirok etardilar va chet mamlakatlarga katta-katta karvonlar yuborib, foyda olishardi.Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida siyosiy ahvol iqtisodiy va ijtimoiy ahvol kabi inqirozli holatga uchrab qolgan bo‘lsada,biroq u rivojlanishdan va taraqqiyotidan butunlay to‘xtab qolmadi va asriy an'analarni davom ettirgan holda davom etdi.Ashtarxoniylar inqirozi va Abulfayzxonning o‘limi bilan barxam topa boshlaganBuxoro xonligi taxti bir necha yillar davomida(1747-1756 yy)ashtarxoniy shahzodalar tomonidan boshqarilgan bo‘lsada,hokimiyat amalda mang‘itlar urug‘idan bo‘lgan Muhammad Rahim qo‘liga o‘tib qolgan edi. Muhammad Rahim o‘z hukmronligining dastlabki yillarida markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.Mamlakatdagi

siyosiy vaziyatning barqarorlashuvidan manfaatdor bo'lgan yirik yer egalari,savdogarlar,ulamolar va fuzalolaruning bu siyosatini qo'llab-quvvatladilar.Ishni avvalo saroy amaldorlarini o'zgartirishdan markaziy boshqaruvni tartibga solishdan boshlagan Muhammad Rahim asta sekin viloyatlar hokimligiga ham o'ziga sodiq odamlarni qo'yishga kirishdi.Buning uchun u separatistik kayfiyat juda kuchli bo'lgan Shahrisabzga 1750-1752 yillarda4 marta yurish qilib,bu yerdagi muhim mudofaa qo'rg'onlari (Kitob,Sangfurush,G'ovmish,Qushchi)ni egalladi va vohada o'z hokimiyatini to'laligicha o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. G'uzor ham Buxoro hokimiyatini tan oldi.Muhammad Rahim Miyonqol,Nurota.Urgut,Qo'bodiyon,Boysun kabi viloyatlarga ham yurishlar uyushtirib,markaziy hokimiyatni tan olishga majbur qildi. 1753-1756 yillarda Zarafshon vohasining yuqori oqimi,Jizzax,Zomin ham Buxoro amirligi tarkibiga qo'shib olindi.Buxoroning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash maqsadida 1752-1753 yillarda shaharning eski devori yonida yangi mudofaa devori (2 metr)qurildi.O'z hokimiyatini mustahkamlab olgan g'ayratli Muhammad Rahimni Buxoroning qonuniy hukmdori sifatida tan olib Qo'qon ,Toshkent,Marv,Balx va Qunduz vakillari va hukmdorlari rasmiy elchiliklar yubordilar.Muhammad Rahim vafotidan so'ng taxtga uning tog'asi Miyonqol hokimi Doniyolbiy o'tirdi.Uning hukmronligi davrida (1759-1784 yy) markaziy hokimiyat zaiflashdi va urug'lar o'rtasidagi nizolar markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlar ko'paydi.Bunday hol butun mamlakat bo'ylab yoyildi.Yuz,kenagas,burgut,baxrin,saroy kabi yirik o'zbek urug'lari birlashib,Buxoroga qarshi yurish qildilar.Biroq isyonchilar xalqning qo'llab-quvvatlashlari tufayli bostirildi.Bu voqyea Doniyolbiy hukmronligining dastlabki yillaridayoq yuz bergan edi.1771-yilda Shahrisabz va G'uzor bekliklarida davlatga qarshi kuchli qo'zg'olon ko'tarildi.Bu qo'zg'olon juda katta qiyinchlik bilan bostirildi.Qo'zg'olon rahbarlari qatl qilindi.Mamlakatda g'alayonlarning to'xtovsiz davom yetib turganligi markaziy hokimiyatning obro'si va qudratini zaiflashtirdi.Bu hol iqtisodiy ahvolning ham

yomonlashuviga olib keldi.1784 yilda ko'tarilgan navbatdagi qo'zg'olon natijasida mamlakatda hukmdor o'zgardi va taxtga Doniyolbiyning o'g'li Shohmurod o'tkazildi.Shohmurod Buxoro amirligi tarixida o'ziga xos o'ringaega bo'lgan hukmdorlar sirasiga kiradi.U mang'itlar sulolasi hukmdorlari orasida eng birinchi bo'lib"amir"unvoni bilan davlatni boshqardi.Shunga ko'ra bu davlat ham Buxoro amirligi degan nom oldi.Tarixda"amir ma'sum"(begunoh amir)nomi bilan mashhur bo'lgan Shohmurod hukmronligi yillari (1785 - 1800)Buxoro amirligida markaziy hokimiyat boshqaruvining nisbatan mustahkamlanishi davri hisoblanadi.Shohmurod ham boshqa tarqatayotgan ayrim beklarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirdi va davlatning hududiy yaxlitiligini saqlab qolishga harakat qildi.Shohmurod faqatgina siyosiy hokimiyatni mustahkamlab qolmasdan,bir qator ma'muriy iqtisodiy-madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi.O'z hayotini kam tarona davreshlarga xos tarzda o'tkazgan bu hukmdor Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi,Amudaryo bo'ylaridagi sug'orish tizimlarini qayta tiklab,yangi inshootlar,ko'priklar,yo'llar va boshqalarni barpo ettirdi.Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan moliya,sud,ma'muriy va harbiy sohalaridagi islohotlar natijasida mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy hayot bir muncha jonlandi.Amir Shohmurod o'g'li Amir Haydarni mang'itlarning ota meros mulki hisoblangan va amirlikda katta nufuzga va mavqyeiga ega bo'lgan Qarshi shahriga hokim etib tayinlandi.Shundan boshlab mang'itlar sulolasi taxt vorislarini Qarshida hokimlik qilishlari odat tusiga kirdi.Shohmuroddan so'ng taxtga Amir Haydar otasining siyosatini davom yettira olmadi va uning hukmronligi yillarida (1800-1826)mamlakatdagi siyosiy keskin vaziyat hukm surdi.Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Shahrisabz,Urg'ut,Miyonqol bekliklar oga qo'shin tortishga majbur bo'ldi.Harbiy yo'l bilan qo'lga kiritma olmagan viloyatlar boshqaruvini kelishuvchilik yo'li bilan o'zbeklari qo'lida qoldirishga majbur bo'ldi.Hususan,bo'ysunmagan Shahrisabz mahalliy hokim Doniyor allomaga mulk sifatida taqdim yetildi va Shahrisabz buning natijasida 1858-yilgacha

mustaqil ravishda hukm surdi.O'ratepa bekligi bo'ysundirilib,amirlik hududlari bir muncha kengaytirildi.Bu davrda qo'shni xonliklar bilan munosabatlar ham keskinlashdi.Xiva xonligi tomonidan uyushtirilgan bir qancha bosqinchilik yurishlari asosan ommasi ko'magida qaytarildi.Qo'qon xonligi bilan munosabatlar esa ancha jiddiy va keskin tus oldi.Azaldan Buxoroga tobe hisoblangan Toshkent,Turkiston,O'ratepa,Xo'jand va boshqa chegara bo'ylab joylashgan shaharlarga qo'qonliklarning tajovuzlari ancha keskin tarzda kuchayib bordi.Amir Haydar 1807-1810 yillarda Qo'qon xoni Olimxon bilan Toshkent,O'ratepa,Jizzax,Zomin shaharlari uchun qo'ldan-qo'lga o'tib turdi.Amir Haydar vafotidan so'ng taxtni uning uchinchi o'g'li Nasrullo egalladi.O'z akalari Xusayn va Umarni o'ldirib taxtni egallagan Nasrullo mang'itlar sulolasining va Buxoroning eng qonxo'r va zolim vakili sifatida tarixda qolgan.Shunga qaramay Amir Nasrullo markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlangan,harbiy sohada ancha samarali islohotlar o'tkazib,o'z qo'shinining jangovar holatini oshirgan,mamlakatning hududiy yaxlitligini bir muncha tiklagan hukmdor ham edi.Amir Nasrullo hukmronligi(1826-1860 yy)davri ichki va tashqi dushmanlar bilan to'xtovsiz kurashlar ostida o'tdi.O'z dushmanlarida qo'rquvni kuchaytirish maqsadida ko'plab kishilarni qatl yettirgan uchun Nasrullo xalq orasida "Qassob amir"nomi bilan atalgan edi.Markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida olib borilgan to'xtovsiz kurashlar Nasrullodan norozilikni kuchaytirib yuborgan edi.Nasrullo bo'ysunmagan beklarga qarshi kurashar yekan,shavqatsiz bo'lishga intildi.Shahrisabz bekligiga qarshi olib borilgan kurash uzoq vaqt davom yetdi va 1832 yildan 1858-yilgacha davom yetdi. Amirlikning shimolidagi chegara shaharlari (Xo'jand,O'ratepa,Toshkent,Jizzax,Zomin)uchun Qo'qonliklar bilan bo'lgan uzoq davom yetdi va janglar Buxoro foydasiga hal bo'la boshladi.Amir Nasrullo 1842-yilda Qo'qon xonligi poytaxtini ham egalladi va Qo'qon xoni Muhammad Alixonni oila a'zolari bilan birga qatl yettirdi.Qo'qonning egallanishiga ba'zi Qo'qonlik amaldorlari ham yordam bergan edilar.Xiva

xonligi bilan ham nizoli vaziyatlar saqlanib qoldi. Amir Haydar hamda Nasrullo hukmronligi davrida Rossiya va Angliyaning manfaatlari O'rta Osiyoda to'qnashdi. Bu davrda Hindistonni egallagan va Afg'onistonda katta ta'sirga ega bo'lgan Angliya, Buxoro amirligiga o'z vakillarini yubora boshlaydi. XIX asrning 30-40 yillarida amirlikda bir qancha ingliz ravedkasi xodimlari Murkroft (1824), A. Byorns (1831), Mayor Volf (1843), hamda amir Nasrullo tomonidan qatl yetilgan (1838) polkovnik Stoddart va mayor Konnolilar bo'lishib, bu yerda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini taqid qilishga urinib ko'rdilar, biroq bu urinish natijasiz yakunlandi. Amir Nasrullo davrida Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklari chegaralariga yaqinlashishi davom yetdi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga urinib ko'rdi. XIX asrning 60 yillariga qadar Rossiya imperiyasining maxsus yelchilari ham o'z manfaatlarini ko'zlab 4 marotaba Buxoroga yuborilgan bu rus maxfiy xizmati vakillariga maxsus topshiriqlar berilgan bo'lib, ular mamlakatning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, shaharlar va mudofaa qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar va boshqa shu strategik ahamiyatga ega holatlarni o'rganishlari lozim edi. Bu ma'lumotlar keyinchalik Rossiya imperiyasining xonliklarini istilo qilishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Avvalgidek davlatga amir va uning yaqinlariga qarashli davlat yerlari, xususiy mulkdorlarga tegishli yer-mulklar (mulkixolis), diniy mahkamalar, madrasa va masjidlar, qabristonlar harajatlari uchun berilgan vaqf yerlari mavjud edi. Dehqonchilikda barcha sohalar an'anaviy ravishda o'z taraqqiyotida davom yetdi. Bu davrda ayniqsa uzumchilik, sholikorlik, paxta va tamaki yetishtirish ancha taraqqiy yetdi. Chorvachilik amirlik hududidagi bepoyon dasht va cho'l, tog' va tog' oldi hududlarida mavjud edi. Cho'l hududlarida xususan, Buxoro va Qarshi atroflaridagi dashtlarda qorako'l teri yetishtirish kengayib bordi. Tashqi bozordagi qorako'l teriga talabning kuchliligi qorako'l qo'ylar yetishtirishni kengaytirishga olib kelgan edi. Shuningdek, chorvachilikda yilqichilik, bunda

ham asosan Buxoro qorabayir otlarini yetishtirish taraqqiy yetgan edi. Bundan tashqari yirik qoramollar yetishtirish va chorvachilik mahsulotlari tayyorlash ham ancha taraqqiy yetdi. Hunarmandchlik asosiy yirik shaharlar bilan bir qator yirik qo'rg'onlar va qishloqlarda ham keng tarqalib bordi. Hunarmandchilikning barcha sohalarida o'z kasb uyushmalari mavjud bo'lib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan va barcha ishlab chiqarish jarayoni nazorat qilingan. Chetdan shogird yollash kam uchraydigan holda bo'lib, hunarmandchilik sirlari asosan otadan o'g'ilga meros sifatida qoldirilgan. Hunarmandchilikdagi yetakchi tarmoq to'qimachilik bo'lgan. Bunga sabab bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kuchli bo'lsa, ikkinchi tomondan to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xomashyolarning mahalliy yekanligi va yetarli bo'lganligi edi.

II.1.”Ubaydullanoma”Ashtarxoniylar davri tarixshunosligining muhim manbalaridan biri.

Ashtarxoniylar davri tarixini o‘rganishda Mir Muhammad Amin Buxoriyning “ Ubaydullanoma” asari muhim manbalardan biri sanaladi.Asar Muhammad Yusuf Munshi tomonidan yozilgan “ Tarixi Muqimxoniy” asarining bevosita davomi sanaladi. Muhammad Yusuf Munshi tomonidan yozilgan asar 1702 yil Subhonqulixonning o‘limi bilan tugallangan, uning asarida o‘zbek xonliklaridagi siyosiy tarqoqlik sekin asta borganligi va uning sabablarini ochib berishga harakat qilgan.Nemis olimi F.L.Teyfel asar qulyozmasi bilan tanishgani holda, uning fan tarixidagi o‘rniga yuqori baho bergan edi¹³.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning “ Ubaydullanoma ” asarida yagona o‘zbek davlatining yemirilish sabablari xonlarning davlat boshqaruvidagi no‘noqliklari, mahalliy amaldorlarning o‘z bo‘larmonchiligi, saroydagi real manzara o‘z ifodasini topgan. Asar kirish va 99 paragrafga bo‘lingan holda yozilgan. Asarning kirish qismida Ashtarxoniylar davlatining inqirozi sabablari to‘liq analiz qilingan.

¹³Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.5.

Asarning dastlabki paragraflarida Ubaydullaxonning hokimiyat tepasiga kelishi va taxtga chiqish kunini katta bayram sifatida nishonlashi bayon qilingan. Butun mamlakatning din peshvolari davlat boshlig'ining sha'niga hamdu-sano o'qiganlari holda, Buxoro davlatining kuch-qudrati rivoji buyukligidan bashorat qildilar¹⁴. biri ” Barcha hunarmandlar o'zlarining do'konlarini bezatganlari holda, kechayu-kunduz savdo ishlarini olib borsinlarki bundan barcha xalq bahramand bo'lsin”¹⁵. Bundan tashqari harbiy xizmatdagi yoshlar va davlat xizmatchilari uchun maxsus bayram uyushtirdi. Xalq ommasiga tillo va sovg'alar hadya qildi.

Ubaydullaxonning hokimiyat tepasiga kelishi mahaplliy hukmdorlarning yangidan chiqishlariga sabab bo'ldi. Uning maslahatchisi Muhammad Rahimbiy yuz boshchiligida bo'ysunmagan hududlarga harbiy yurishlar uyushtirishga majbur bo'ldi. Mamlakat boshqaruv idorasida ham ma'lum bir islohatlar o'tkazdi. Jumladan Muhammad Rahimbiy otaliq unvoniga, Muhammad Ma'sum hoji devonbegi, Bek Muhammad biy do'rmon parvonachi, Xoshxolbiy qatag'on dodxoh yasovul, Qobul biy yuz Rahimbiyning ukasi Samarqand hokimi, O'zi Temur biy qatag'on Nasaf viloyati hokimi, Shaxrisabz hokimi etib Xudoyor biy mang'it tayinlandi. Mamalakat diniy ishlari boshlig'i etib, Muhammad Xoja Jo'ybor, sud ishlari boshlig'i etib amir Shaxobiddin tayinlandi¹⁶.

¹⁴Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.22.

¹⁵Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.25.

¹⁶Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.27

Ammo Ubaydullaxonning mamlakatni markazlashtirish siyosatini Sharqiy Buxoro deb atalmish beklik hudud to'liq qo'llab quvvatlamadi. Shuningdek, davlat rahbarlari, yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabila boshliqlariga tobelik Ubaydullaxon siyosatidagi eng qo'pol xato edi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intildi, ammo uddasidan chiqa olmadi. Ubaydullaxonning davlat boshqaruvidagi sustkashligidan jiyani Muhammadmuqim ustalik bilan foydalandi va o'zini Balxning mustaqil hukmdori deb e'lon qildi. Muhammadmuqim yoshligi sababli amalda hokimiyatni uning otabegi Mahmudbiy qatag'on boshqardi. XVIII asr boshlarida Hisor butunlay mustaqil bo'lgan, mahalliy hukmdorlar markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan. Ubaydullaxon hukmronligi (1702-1711) davrida deyarli hamma mulkdorlar unga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Xon qo'zg'olonni tinchitish uchun yuborgan qo'shinlar bir necha bor muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma" asarida ta'kidlashicha, xon qo'zg'oon ko'targan aholi qarshiligini bostirish uchun goh Samarqandga, goh Hisorga, goh Termizga qo'shin yuborishga majbur bo'lgan. Ubaydullaxonning Hisorga yurishini shaxsan Muhammad Rahimbiy otaliq boshqardi, chunki yuz qabilasiga shaxsiy adovati uni shu hududga yetaklagan, ammo bu

yurish Buxoro qo'shining sharmandali mag'lubiyati bilan yakun topdi¹⁷.

Buxoro xonligi hukmdorlari Hisor yurishi mag'lubiyatga uchragach, asosiy e'tiborlarini Sharq davlatlari bilan bo'ladigan savdo aloqalarida muhim o'rin tutuvchi Balxga qaratdilar. Ma'lumki, Balx noiblari kelajakda Buxoro xonligi taxtining vorislari sanalardi. O'z navbatida, Eron va Hindiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida muhim chorraha edi. Ashtarxoniylar hukmdorlar Balxga qilingan harbiy yurishlarida Termiz shahrining strategik o'rnidan unumli foydalanganlar. Yana shuni unutmaslik lozimki, Balx noiblari ko'pincha o'zlarini mustaqil his qilganlari holda, markazning zaifligidan ustalik bilan foydalanganlar. Xususan, Muhammad Muqim sulton Ubaydullaxonning davlat boshqaruvidagi sustkashligidan foydalanib o'z mustaqilligini e'lon qildi. Ammo, uning yoshligidan foydalangan Mahmud qatag'on davlat boshqaruvini o'z qo'lga olgan holda, Balx chegarasida turgan Termiz shahriga harbiy yurishlar uyushtirgani tarixdan ma'lum¹⁸.

Tarixdan ma'lumki, Mahmudbiy qatag'on 1706 yil ashtarxoniylar Muhammad Muqimni o'ldirtirib, o'zini Balx xoni deb e'lon qildi¹⁹. 1707 yili Ubaydullaxon kenagas, mang'it va boshqa urug' boshliqlari bilan o'zaro ittifoq tuzib, ularga katta sovg'a-salomlar tashkil etib, Mahmudbiy qatag'onga qarshi harbiy yurish uyushtirdi. Harbiy yurish natijasida Ubaydullaxon Termizni istilo etib, Amudaryodan

¹⁷ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.69

¹⁸ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.73-82

¹⁹ Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги.-Тошкент:Академнашр,2012.-6.44.

o'tib,Balxni qamal qildi.Qatag'on qabilasini Mahmudbiygga yordam berishdan chalg'itish uchun Ubaydullaxon Shaxrisabz o'zbeklaridan tuzilgan lashkarlarni qatag'onlar yurti Qunduzga hujum qildirdi.Uzoq qamaldan so'ng Balx egallanib,shahar talandi,xalqi qattiq jazoga tortildi²⁰.

Ayniqsa,qatag'on qabilasiga nisbatan ayovsiz jazo choralarini ko'rgani ma'lum.Balxni egallab g'alaba bilan Buxoroga qaytgan Ubaydullaxon yana boshboshdoqliklar va qo'zg'olonlar girdobida qoldi.Mana shu vaziyatda Balxda Maxmudbiy tag'in qo'zg'olon ko'tardi.Ubaydullaxon isyonni bostirishga qo'shin jo'natdi,ammo lashkar bilan birga borayotgan amirlar o'rtasidagi tortushuv hamda xonni to'liq qo'llab-quvvatlamasligi sababli qo'shin Qarshida to'xtadi.Ubaydullaxon Maxmudbiy bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi.Mahmudbiy Balx hukmdorligini saqlab qoldi.

Bundan tashqari Ubaydullaxon Balxga bo'ysunuvchi Andxo'ygga harbiy yurish qilgani va mahalliy hukmdor Nazar turkman isyonini bostirib, uning o'rniga Arslon bakaul turkmani tayinlaydi²¹.

Asarda 1708 yil o'tkazilgan pul islohati haqida ma'lumotlar keltirilgan.Mazkur isloxot mamlakat iqtisodiy hayotini yanada og'irlashtirib yubordi,Buxoro shahrida yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi.Ubaydullaxon qo'zg'olonni katta qiyinchilik bilan bostirganiga qaramay,mamlakatdagi siyosiy vaziyat o'nglanmadi.Ubaydullaxon o'ldirildi va taxtga ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon o'tirdi.Abulfayzxon davrida

²⁰ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.70-71

²¹ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме.-Ташкент.,1957.-с.148-149.

ham qabila boshliqlari va viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari to'htamadi. Markaziy hokimiyat amalda Javshin qalmiq, Ma'sumbiy otaliq, Hakimbiy otaliq qo'lida edi²².

Xulosa qilganimizda, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asari ashtarxoniylar hukmdorlaridan biri Ubaydullaxon davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

II.2.”Ubaydullanoma” asarida Surxon vohasi tarixining yoritilishi.

Surxon vohasi tarixiga nazar solarkanmiz, so'nggi o'rta asrlar xususan shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro va Balx o'rtasidagi tinimsiz nizolar natijasida, bu ikki shahar o'rtasida joylashgan va muhim istehkom vazifasini o'tagan Surxon vohasiga, xususan Termizga muhim strategik nuqta sifatida e'tibor qaratilganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Shuni ta'kidlash lozimki, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Balx viloyati o'zining qimmatbaho boyliklari va savdo chorrahasi bo'lganligi uchun Buxoro hukmdorlari unga alohida e'tibor qaratganlari holda, bu hududga eng ishonchli kishilar, keyingi davrlarda esa xonning valiahdi Balx hokimi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Masalan, shayboniylar sulolasining yirik vakili bo'lmish Abdullaxon II Termizni egallashga alohida e'tibor qaratgan. Manbalarda yozilishicha, u Termiz shahriga yurishga bir yil hozirlik ko'rib, tovochilar turli hududlarga yuborilib, tezlikni shamoldan qarz olib, shoshilinch ravishda barcha qo'shinni bir joyga to'plaganlar. Samarqand sultoni Juvonmard sulton o'zini Abdullaxonga ancha yaqin tutib, o'zining qarindoshlari Abulxayr sulton va

²² Сагдуллаев А. ва б. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. -Тошкент:Академия,2000.-Б.177.

Muzaffar sultonlarni Termiz yurishida ishtirok etish uchun shoh qo‘shiniga yordam kuch sifatida yuborgan²³

. 1572 yil may-iyun oylarida Termiz Abdullaxon izmiga kiritilib, shaharni boshqarish Mahmud sultonga topshirilgan²⁴. Balx hokimi etib o‘g‘li Abdulmo‘min tayinlangan davrda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlar bilan birga Termiz ham in'om etilgan.

Ashtarxoniylar davrida ham Hisor mulkligi tarkibida bo‘lgan Termiz va Chag‘aniyonga muhim strategik nuqta sifatida e’tibor qaratganlar²⁵. Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda mahalliy mualliflar tomonidan yoritilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlari Surxon vohasining siyosiy tarixini o‘rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari muhim manbalardan biri²⁶. Xoja Samandar Termiziy 1630 yil oxirlarida Termizda tug‘ilgan. Buxoro madrasalarida tahsil olgan, Narpayda qozi va qozilik mahkamasida ishlagan. 1670 yillari Abdulazizxon saroyida voqyeana vis vazifasida ishlagan. 1679-1680 yillari Buxoro va Xorazm xoni Anushaxon qo‘shini bilan bo‘lgan jangda ko‘rsatgan jasorati uchun Abdulazizxon tomonidan qalmoq sovuti va hind qalqoni bilan mukofotlanadi. Subhonqulixon davrida katta obro‘ga erishib, ikki marta Nasaf shahriga din raisi etib tayinlanadi.

Ashtarxoniylar davridagi siyosiy hayotni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Xoja Samandar XVIII asr boshida Buxoroda, Qarshida, jumladan, Termizda ham siyosiy notinchlik kuchaygani uchun Hitori Shodmonga ko‘chgani, u yerda bek bilan munozara olib borganidan so‘ng Karvontushdiga kelganini yozib qoldirgan. Chorvachilik, dehqonchilik rivojlanganini ham qayd etadi²⁷.

²³Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома.–Тошкент: Шарк, 1999.–Б.229.

²⁴Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома.–Тошкент: Шарк, 1999.–Б.234.

²⁵Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского с примечаниями А. А. Семенова. – Ташкент, 1957. – С.36.

²⁶ Хoja Самандар Термизий. Дастур ул-мулук / Форс-тожик тилидан эркин таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Ж. Эсонов. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1997. – 271 б.

²⁷ Хoja Самандар Термизий. Дастур ул-мулук / Форс-тожик тилидан эркин таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Ж. Эсонов. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1997. – 8 б.

XVIII asrda Buxoro xonligi, jumladan Surxon vohasidagi siyosiy hayotni o'rganishda Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo (Muhammad Yusuf Munshiy)ning "Tarixi Muqimxoniy" asari muhim ahamiyatga ega. Surxon vohasi tarixiga nazar solarkanmiz, so'nggi o'rta asrlar xususan shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro va Balx o'rtasidagi tinimsiz nizolar natijasida, bu ikki shahar o'rtasida joylashgan va muhim istehkom vazifasini o'tagan Surxon vohasiga, xususan Termizga muhim strategik nuqta sifatida e'tibor qaratilganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Shuni ta'kidlash lozimki, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Balx viloyati o'zining qimmatbaho boyliklari va savdo chorrahasi bo'lganligi uchun Buxoro hukmdorlari unga alohida e'tibor qaratganlari holda, bu hududga eng ishonchli kishilar, keyingi davrlarda esa xonning valiahdi Balx hokimi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Masalan, shayboniylar sulolasining yirik vakili bo'lmish Abdullaxon II Termizni egallashga alohida e'tibor qaratgan. Manbalarda yozilishicha, u Termiz shahriga yurishga bir yil hozirlik ko'rib, tovochilar turli hududlarga yuborilib, tezlikni shamoldan qarz olib, shoshilinch ravishda barcha qo'shinni bir joyga to'plaganlar. Samarqand sultoni Juvonmard sulton o'zini Abdullaxonga ancha yaqin tutib, o'zining qarindoshlari Abulxayr sulton va Muzaffar sultonlarni Termiz yurishida ishtirok etish uchun shoh qo'shiniga yordam kuch sifatida yuborgan²⁸

. 1572 yil may-iyun oylarida Termiz Abdullaxon izmiga kiritilib, shaharni boshqarish Mahmud sultonga topshirilgan²⁹. Balx hokimi etib o'g'li Abdulmo'min tayinlangan davrda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar bilan birga Termiz ham in'om etilgan.

Ashtarxoniylar davrida ham Hisor mulkligi tarkibida bo'lgan Termiz va Chag'aniyonga muhim strategik nuqta sifatida e'tibor qaratganlar³⁰.

²⁸Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома.—Тошкент: Шарқ, 1999.—Б.229.

²⁹Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома.—Тошкент: Шарқ, 1999.—Б.234.

³⁰Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского с примечаниями А. А. Семенова. — Ташкент, 1957. — С.36.

Boqimuhammad davrida Hisorni egallash uchun harbiy harakatlar olib borilgan, Termiz orqali o'tuvchi Balxga bo'lgan munosabat o'zgarmadi. Buxoro taxtiga o'tirgan xon albatta o'zining valiahdini Balx hokimi etib tayinlagan. Boqimuhammad davrida Valimuhammad (Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya, 1956,s.75), Valimuxammad davrida Shohbek ko'kaldosh (Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya, 1956,s.79), Imomqulixon davrida Nodir Muhammadxon (Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya, 1956,s.91) , Subhonqulixon davrida Iskandar Bahodirxon (Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya, 1956,s.116) . 1685 yilda Siddiq Muhammadxon o'limidan keyin Balxga hokim etib Subhonqulixonning nevarasi 14 yoshli Muhammad Muqim sulton , uning yoshligi sababli otaliq qilib Mahmudbiy tayinlandi. (Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya, 1956,s.129) . XVIII asr boshlariga kelib, ashtarxoniylar davlatida siyosiy vaziyat og'irlashdi, xuddi shu davrda Ubaydullaxon hukmronligi boshlandi. Unga davlat rahbarlarining yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabila boshliqlariga tamomila tobeligi meros bo'lib o'tdi. U markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intildi, ammo uddasidan chiqolmadi. Ubaydullaxonning davlat boshqaruvidagi sustkashligidan jiyani Muhammadmuqim ustalik bilan foydalandi va o'zini Balxning mustaqil hukmdori deb e'lon qildi. Muhammadmuqim yoshligi sababli amalda hokimiyatni uning otabegi Mahmudbiy qatag'on boshqardi.

Shundan so'ng asosiy e'tibor Balx chegarasida turgan Termizga qaratildi. Buxoro xonligining strategik shaharlaridan biri sanalgan shahar qadimda Barbar deb nomlangan, juda mustahkam qal'aga ega bo'lib, bir tomondan Amudaryoning keng qirg'oqlari, ikkinchidan bo'ysunmaydigan va isyonkor qo'ng'iroq urug'ining turli qabilalari uni yanada mustahkam himoya qilardi³¹. Ana shunday mustahkam qal'ani egallash orqali Muhammad Rahimbiy ikki maqsadni amalga

³¹Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского с примечаниями А. А. Семенова. – Ташкент, 1957. – С. 70.

oshirishni ko'zlagandi. Birinchidan, Balx yo'lidagi mustahkam qal'aga egalik qilish, ikkinchidan, bo'ysunmas vaisyonkor qo'ng'irotlar hukmdori Sheralini hokimiyatdan chetlatish. Mazkur sabablar tufayli Termizga harbiy yurish ham Muhammad Rahimbiy ko'rsatmasi bilan amalga oshirilib, qo'ng'irotlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan olindi, nayman urug'idan Ne'matulla biy mazkur vazifaga tayinlandi³².

Termiz hokimligini qo'lga kiritgan Ne'matulla to'qcoba tajribasizligi va yoshligi sababli qaynotasi Shodmon yabg'uni yoniga chaqirib, unga Termiz qal'asini topshirib, o'zi aholisi ko'p Darf qal'asiga joylashdi. Shodmon yabg'u o'ziga xos kishi bo'lib, davlat manfaati uning uchun yot edi. U Balxga Mahmudbiy otaliqqa ikki kishini yuborib, ular orqali butun vaziyatni tushuntirib Termiz qal'asini unga sovg'a sifatida tortiq etdi. Bunday sovg'adan quvongan Mahmudbiy butun qatag'onlar va Qabodiyon, Qo'rg'ontepadan do'rmonlardan jamlangan qo'shin yordamida Amudaryodan kechib o'tib Termizga kirib keldi. Termiz qal'asini mustahkam egallash uchun Mahmudbiy Balx hukumatidan harbiy yordam so'radi. Buxoro xonligi bilan dushman munosabatda bo'lgan Muhammadmuqim sulton Termizga Mahmudbiyga yordam tariqasida Balx harbiy qo'shinini jo'natdi. Mahmudbiy qatag'on bilan birga kelganlar Termiz va uning atrofidagi qishloqlarni talab vayron eta boshladi. Ubaydullaxon Ne'matulla to'qsobaning no'noqligi tufayli qo'ldan ketgan Movarounnaxr darvozasi sanalmish Termizni qaytarib olish uchun Muhammad Yor eshikboshi boshchiligidagi katta qo'shinni Termizga jo'natdi. Ammo yuborilgan qo'shin natijaga erisholmagach 1705 yil 27 martda Hait dodxoh, Boqi to'qsoba olchin, Xo'ja Ali miroxo'r qatag'on, Avaz eshikboshi va boshqa qo'shin Mahmudbiyni tor-mor qilish uchun Termizga jo'natildi. Ammo bu qo'shin mag'lubiyatga uchrab, Hait dodxoh o'ldirildi³³.

³²Абдурраҳман-и Тали'. История Абулфейз-хана. – Ташкент: АН УЗССР, 1959. – С. 18.

³³Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с тадж. с примеч. А. А. Семенова. – Ташкент, 1957. – С. 73-82.

Buxoro qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratgan Mahmudbiy qatag‘on 1706 yili ashtarxoni Muhammadmuqimni o‘ldirtirib, o‘zini Balx xoni deb e‘lon qildi. Termiz ham Balxga tobe viloyat sifatida Mahmudbiy hukmronligi ostida qoldi.

Muhammad Yusuf Munshi asli balxlik bo‘lib, Subxonqulixon va Muxammad Muqimxon saroyida munshiy bo‘lib xizmat qilgan. Uning qalamiga mansub “Tarixi Muqimxoniy” asari Balxning mustaqil hukmdori Abul Muzaffar Said Muqim Bahodirxon faoliyatiga (1702-1707) bag‘ishlangan, Balx viloyati va qo‘shni viloyatlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarixiga ham e‘tibor qaratilgan. Xususan, Balx hukmdori Solihxo‘janing hokimiyatdan chetlatilishi, o‘sha davr siyosiy hayotida Termizning muhim strategik nuqta ekani ta’kidlangan ³⁴.

Surxon vohasining XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarida ham yoritilgan. “Ubaydullanoma” asarida (69-75, 79-83, 88-93 – betlari) Termiz-Sherobod hududlarida kechgan siyosiy jarayonlar tarixi yoritilgan. “Tarixi Ubaydullanoma”da 1702 yildan 1711 yillargacha yuz bergan voqyealar o‘z aksini topgan. Ubaydullaxon hukmronligi yillarida deyarli barcha hududlar hukmdorlari unga qarshi bosh ko‘tarib qo‘zg‘olon ko‘targanlar, qo‘zg‘olonni tinchitish uchun xon tomonidan yuborilgan qo‘shinlar surunkasiga mag‘lubiyatga uchragan. Xususan, Hisor XVIII asr boshlarida butunlay mustaqil bo‘lib, markaziy hokimiyatga bo‘ysunmagan. Goh Samarqandga, Hisorga, Termizga qo‘shin yuborgan. Hisorga yurishiga shaxsan Muhammad Rahimbiy otaliq boshchilik qilgan. Hisorliklardan qattiq zarbaga

³⁴Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская. История / Перевод с тадж. предис. прим. и указат. проф. А. А. Семенова. – Ташкент, 1956. – 303 с. Яна қаранг: Тазкирайи Муқимхоний. (Сайри торихи, фарҳанги ва иҷтимоии Мовароуннаҳр дар аҳди Шайбониён ва Аштархониён. 906-1116 ҳиҷри). Таълифи Муҳаммад Юсуф мунший. Муқаддима, тасҳиҳ ва таҳқиқи Фаришта Саррофон. – Тоҳрон: Мероси мактуб, 1380. – 356 с. (форс тилида).

uchragan Buxoro qo'shinlari to'g'ri yo'ldanmas,balki tog' yo'llari orqali Samarqandga qaytishga majbur bo'lgan ³⁵.

Termizga uyushtirilgan yurish ham Muhammad Rahimbiy ko'rsatmasiga amal qilingan holda bajarilib,qo'ng'irotlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan bo'shatiladi va Ne'matullo to'qsoba shahar hokimi etib tayinlanadi.

Ubaydullaxonning shafqatsiz yurishi,o'tkazgan jazo-qatl siyosatidan norozi xalq tezda qo'zg'olon ko'tarib amir tarafdorlaridan o'ch oladi. Bundan foydalangan Mahmudbiy qatag'on Balx va Termizni egallaydi. Siyosiy vaziyat Ubaydullaxon foydasiga hal bo'lmagach Mahmudbiy qatag'on bilan yuzaki yarashib,uning Balx va Termiz hukmdori ekanini tan oladi. Termiz Balxga tobe hududga aylanadi. Mir Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha,XVII – XVIII asrlarda Termiz Movarounnahrning janubiy darvozasi hisoblangan,shahar Barbar deb nomlangan. Mustahkam qal'asi bo'lib,unga Amudaryoning keng qirg'og'i yordam bergan,qo'ng'irot urug'i tomonidan qattiq himoyalangan ³⁶.

Asarda Termiz va uning atrofida yashab kelayotgan qo'ng'irotlar ikki qismga bo'lingani,bir qismi nayman urug'i va Ne'matullo bilan birlashib Ubaydullaxonni tan olib,unga so'zsiz itoat etgani,ikkinchi qismi Sheralixonga qo'shilib Sherobodga ko'chib o'tganlari,o'zlarining davlatini tuzganlari ta'kidlangan. XVIII asrda Sherobodda Termizga bo'ysunmaydigan ilk mustaqil qo'ng'irot davlati markazi tashkil etilgani aytilgan. Shuningdek,asarda 1708 yilda o'tkazilgan pul islohati va uning oqibatlari,o'rta ijtimoiy qatlamlar harakatlari,Ubaydullaxon davlat boshqaruvida yangicha usullarni izlay boshlagani va umuman davlatni inqirozga olib kelgan sabablar ko'rsatib berilgan.

³⁵ Мир Мухаммед Амин-и Бухорий. Убайдулла-наме / Перевод с тадж. предис. прим. и указат. проф. А. А. Семенова. – Ташкент, 1957. – 326 с.

³⁶ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. – С. 70.

Abdurahmon Davlat (Tole')ning “Abulfayzxon tarixi”³⁷ asari ashtarxoniylarning oxirgi hukmdorlaridan biri Abulfayzxon davriga (1123/1711-1169/1747) bag‘ishlangan. Asar muallifi, hukmdor doiralarga yaqin kishi bo‘lib, shu sababli nomiga Davlat qo‘shib aytilgan. Muallif mazkur asarni Abulfayzxonning yaqin amaldorlaridan biri bo‘lmish Abdulla qo‘shbegi buyrug‘i bilan yozgan. Abdurahmon Tole' ushbu asarida Buxoro xonligining muallfi davrigacha bo‘lgan davr keng yoritiladi. Asarning muhim ahamiyati shundaki, muallif saroy tarixchisi bo‘lganligi sababli, davlat ishlariga doir ma'lumotlar, boshqa tarixchilarga nisbatan to‘liq va nisbatan rasmiy tarzda bayon qilingan. Asarda ashtarxoniylar davlatining inqirozga olib kelgan sabablaridan biri bo‘lmish ichki nizolar, mulkdorlarning o‘zaro urush va janjallari, xo‘jalik hayotiga ishlab chiqarishni izidan chiqib ketishi, mahalliy hukmdorlarning markaziy xon hukumatiga qarshi chiqishlari, xalq ahvolining og‘irlashib ketishi va ularning qo‘zg‘olonlari kabi masalalarga muallif alohida ahamiyat bergan.

Buxoroning XVIII asr tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri sanalmish” Tuhfat ul-xoni” asarining muallifi Qozi Muhammad Vafo Karminagi(1685-1769) Buxoroning o‘qimishli va taniqli kishilaridan, mashhur tarixchi olim. Mir Muhammad Amin Buxoriyning guvohlik berishiga qaraganda, Muhammad Vafo Karminagi ashtarxoniylar Ubaydullaxon, Abulfayzxonlar saroyida kitobdor bo‘lib xizmat qilgan³⁸. Asar dastlab “Tarixi Raximxoniy” deb nomlangan. 1745 yilda Muhammad Rahimxondan o‘z davrini yozish topshirig‘ini olgan va “Tarixi Abulfayzxon” asarining davomi sifatida asarni yozgan. Asarda mang‘itlar sulolasining birinchi hukmdorlari va ularning olib borgan siyosati haqida ma'lumotlar mavjud ³⁹. Muallif Muhammad Rahimxonning vafotidan keyin Muhammad Doniyolbiy hukmdorligining dastlabki o‘n yilliklarida kechgan voqeyalar to‘g‘risida ham

³⁷ Абдурахман-и Тали'. История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А. А. Семенова. – Ташкент: Фан, 1959. – 176 с.

³⁸ Ахмедов Б. А. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Тошкент: Чўлпон, 2003. – Б. 47.

³⁹ Собрание восточных рукописей ИВ АН Узбекистан. Т. 1. – Ташкент, 1954. – С. 77-78.

ma'lumot bergan. Uning vafotidan keyin ishni Domullo Olimbek ibn Niyozqulibek oxiriga yetkazgan.

Doniyolbiyning o'n ikkinchi o'g'li Muhammad Yoqub tomonidan yozilgan "Gulshan ul-muluk" asari Muhammad payg'ambardan to amir Nasrullo davrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bo'lib, Shayboniylar, Ashtarxoniylar davriga qisqa to'xtalib o'tgan, Mang'itlar davri kengroq yoritilgan⁴⁰.

Mulla Ibodulloh va Mulla Muhammad Sharif tomonidan amir Haydar sharafiga bag'ishlab yozilgan "Tarixi Amir Haydar" asarida hokimiyatning Ashtarxoniylardan mang'itlarga o'tish jarayoni yoritilgan.

Muhammad Sharif Ibn Muhammad Naqiyning "Toj ut-tavorix" (Tarixlar toji) asarida mang'itlar amirlari, xususan, Muhammad Rahimxon hukmronligi davri yoritilgan. Mazkur asarda 1757 yil 4 mayda Denovda ko'tarilgan yirik qo'zg'olon, uning Muhammad Rahimxon tomonidan 40 ming kishilik qo'shin bilan shafqatsizlarcha bostirilgani qalamga olingan.

Buxoro va Rossiya o'rtasidagi aloqalar Ahmad Donishning "Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mang'itiya" (Risola yoki mang'itlar sulolasi hukmronligi tarixi) asarida keng yoritilgan⁴¹.

Buxoro tarixnavislik maktabi vakillaridan biri bo'lmish Mirzo Badi' Devonning "Majma' ul-arqom" asari⁴²da Buxoro amirligida ma'muriy, moliya, soliq tizimi, xazinadagi kirim va chiqimlar, vasiqa va arizalar tuzish qoida-tartiblari keng yoritgan. Mazkur asarda muallif amirlikdagi amal va mansablar, ular egalarining vazifa va majburiyatlarini bayon qilib, tadqiqotchilarga muhim ma'lumotlarni qoldirgan.

⁴⁰ Анке фон Кюлеьген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 115–123.

⁴¹ Дониш Ахмади Махдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангития. Тахия Далер. – Душанбе: Сарват, 1992. – 92 с.

⁴² Мирза Бадӣ Диван. Маджма' ал-аркам (предписания фиска, приёмы документации в Бухаре XVIII в.). Факсимиле рукописи, введение, перевод, примечания и приложения А. Б. Вильдановой. – Москва: Наука, 1981. – 122 (+198).

O‘rganilayotgan vohaning siyosiy,iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga oid zarur ma'lumotlar Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya”⁴³ asarida keltirilgan. Somiy mazkur asariningko‘p joylarida mahalliy hukmronlar,bek va amlokdorlar haqida ham ma'lumot beradi. Mazkur manbaning ma'lumotlari asosida vohaning siyosiy tarixini yanada kengroq yoritish mumkin.

Surxon vohasi,xususan,Boysun va Sherobod bekliklari tarixini o‘rganishda buxorolik tarixchi Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asari ham muhim manba. Asarda Mirzo Salimbekning Boysun va Sherobodda bek lavozimida ishlagan davrda bekliklarning boshqarilishi,qishloq xo‘jaligi uchun ekinzorlarning kengaytirilishi,o‘zi ham yangi yerlar o‘zlashtirib katta daromad olgani,vohaning iqlimi,sug‘orilish tizimi haqida ko‘plab ma'lumotlar keltirgan⁴⁴.Xulosa qilganimizda,” Ubaydullanoma” asarini tatqiq etish orqali Surxon vohasining ashtarxoniylar davridagi siyosiy o‘rnini o‘rganish mumkin.

⁴³Сами Мирза Абдулазим. Тарих-и салатин-и мангитийа (история мангытских государей). / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л. М. Епифановой. – Москва: Восточная литература, 1962. – 178 (+127 л.).

⁴⁴Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: ки. н. Н. К. Норкулов. Редактор перевода: д. ф. н. А. К. Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д. и. н. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – 330 с.; Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Тавориhi мутақаддимин ва мутааххирин / Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳлар муаллифи Н. Йўлдошев. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2003. – 344 б.

XULOSA

Yurtimiz tarixi, mustaqillik sharofati ila yangidan-yangi manbalarni o'rganish asosida tatqiq qilinmoqda. Co'nggi o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda maxalliy muarrixlar tomonidan yozilgan asarlar muxim ahamiyatga ega. Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi hukmdorlaridan biri Ubaydullaxon davrini o'rganishda Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asari muxim manba hisoblanadi. Asarni o'rganish asosida quyidagi xulosaga kelindi.

–Asarda Ashtarxoniylar davridagi siyosiy hayot va o'sha davrdagi ichki ziddiyatlar yoritilgan. Shuningdek Ashtarxoniylar davri bilan bog'liq bir qator siyosiy hayot tarzi ham o'z yechimini topgan.

–Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asarida Ashtarxoniylar davridagi ma'muriy-boshqaruv tizimi unda yuz bergan jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy hayoti va aholining turmush tarzi xamda ashtarxoniylar sulolasi iqtisodiyotiga oid bir qator keng va juda qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

–Xususan o'sha davrda bir qator hukmdorlar hukmronlik qilgan bo'lsa ashtarxoniylar sulolasida o'ziga xos mavqeiga ega bo'lgan Ubaydullaxon (1702-1711 yy) haqida qimmatli tarixiy manbaga boy bo'lgan Mir Muxammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asari juda katta o'rin egallaydi.

–Shuningdek asarda biz uchun o'ta qimmatli bo'lgan Surxon vohasi tarixining yoritilishi hamda xususan o'sha davrda Termizga srategik nuqta sifatida e'tirof etilganligi ham asarda o'z aksini topgan. Xususan Ashtarxoniylar davrida Surxon vohasi hududida joylashgan Termiz va Chag'oniyon Xisor bekligining mulki sifatida qayd etilganligi ham asarda bayon etilgan. Ashtarxoniylar davri tarixshunosligi yoritishda so'nggi asrlar davrida yozilgan muxim tarixiy manbalardan biri hisoblangan Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asari Ashtarxoniylar davri tarixshunosligini

o'rganish va tatqiq etishda bu asarning o'rni naqadar alohida va bebaho ekanligi o'sha davr muarrixlari tamonidan takidlangani bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тарихчи олим ва журналистлар билан суҳбат.//Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Ж.7.–Т., 1999. - Б. 132-155.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз (ўзбек ва рус тилларида). Т.: Ўзбекистон; 2016. – 56 бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак (ўзбек ва рус тилларида). Т.: Ўзбекистон; 2017. – 104 бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Олий мажлисга мурожаатнома. Т.: Ўзбекистон; 2018.
5. Ананьев А.Г. Шеробод воҳаси ерларини Сурхон сувлари ёрдамида суғориш лойиҳаси.-Тошкент: Шарқ, 2002.-32 б.
6. Логофет Д.Н. Сирана бесправия (Бухарское ханство и его современное состояние)-СПБ., 1909.-239
7. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом России. Т.П.-СПБ.,1911.-218 б
8. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом России. Т.П.-СПБ.,1911.-340 б
9. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары.-СПБ., 1913.-619 с.
10. Логофет Д.И. Орошение Термеза // Туркестанский сборник. Т. 497. –С.172-175
11. Маев Н. Географический очерк Гиссарского края и Кулябского бекства// Известия ИРГО. Т. XII.- Ташкент, 1876.-с.1-15.
12. Маев Н. Очерки горных бекств Бухарского ханства // Туркестанский вестник. 1878. №49. 12 декабря.-С. 194-195; № 51. 28 декабря.-С. 202-203.
13. Маев Н. Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V-СПБ., 1879. - 400 с
14. Маев Н. Долина Сурхана// Туркестанские ведомости. 1879. № 36-С. 18-26.
15. Аннаев Т. Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Мерос, 1997.-107 б

16. Масальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии и его будущее. – СПб. 1892.- 287 с.
17. Абдурахмонова Н. Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими.-Тошкент: Академия, 2002. – 240-б
18. Масальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии и его будущее. – СПб. 1892.- 287 с.
19. Аминов А. Бабаходжаев А. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Ташкент: Ўзбекистон, 1966.-210 с
20. Аннаев Т. Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавхалар. – Тошкент: Мерос, 1997.-107 б
21. Ахмаджонов У.А. Россия империяси Марказий Осиёда.-Тошкент:, 2003.-270 б.
22. Авазов Ю.У. Шарқий Бухоро бекликларида солиқ тизими // Жамият ва бошқарув. 2004. №3.-Б.58-59
23. Азимов М. Термиз тарихи. –Термиз, 2001.-193 .
24. Даминова З. Шеробод концессияси: хусусиятлари ва сабоқлари // Ижтимоий фикр. 2003. №2.-Б. 43-46
25. Даминова З. Россия империяси маъмурларининг Термиз шаҳрида юритган миллий сиёсати тарихидан // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. Тарих ва ҳозирги замон. Тез. Док. –Тошкент. 2003. –Б. 108-111.
26. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч.1.-Душанбе. 1962.-355 с
27. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине. XIX в. Ч.II.-Душанбе. 1963. -351 с
28. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1968. – 227 с.
29. Раззоқов А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.-220 б
30. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. –Тошкент, 1996. 115 б.
31. Рўзиев А. Ва бошқ. Сурхондарё сув омборлари ва агросаноат мажмуини ривожлантириш.-Тошкент. 1997. -114 б.
32. Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2007. – 386 б
33. Турсунов С.Н. Тўхтаев А. Жарқўрғон. –Тошкент: Фан., 2008. – 303 б

- 34.Турсунов С.Н. Турдиев Т. Денов. –Тошкент: Фан, 2009. 495 б
- 35.Турсунов С.Н. Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: Академнашр. 2011.560 б
- 36.Тўхтаматов Т.Г. Русско – Бухарские отношения в конце XIX – начале XX вв.-Ташкент: Фан, 1966. – 177 с
- 37.Тўхтаматов Т.Г. Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XX вв//. Тр.ИИ. Кирг ССР. –Фрунзе. 1957. с.151-183
- 38.Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Ташкент: Уздавнашр. 1958. – 78 с
- 39.Хакимова К.З. Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. –Ташкент: Фан. 1980. -175 с
- 40.Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX вв. –Ташкент: Фан, 1991. – 114 с
- 41.Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. М.:Наука,. 1974. – 406 с.
42. Холиқов Р. Россия – Бухоро: тарих чоррахасида. Тошкент: Ўқитувчи. 2005.- 240 б
- 43.Қобилов Э. Сурхондарё саноатининг илк одимлари.- Тошкент: Жайхун. 1993.- Б.30.
- 44.Қобилов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи.-Термиз: Жайхун, 1996. –Б.85.
- 45.Қобилов Э. Маевнинг “Материалы для статистики Туркестанского края» асари Сурхон воҳаси тарихини ўрганишда муҳим манба// Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент. 2008. –Б 207-209.
- 46.Қобилов Э. Кориз // Жаннатмакон. 2008, август.- Б.39-40
- 47.Қобилов Э. Сурхон воҳаси лалми ерлари // Жамият ва бошқарув. 2009. №3. – Б.127-128
- 48.Э.Қобилов. Россия ташқи муносабатларида Сурхон воҳасининг стратегик ўрни // “Насаф ва Кеш тарихи манбаларда” мавзуидаги республика илмий-назарий конференция материаллари. – Қарши. 2010.-Б.190-191.
49. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки.-Ташкент: Фан. 1964. – 195 с.
- 50.Юферов В.И. Хлопководство в Туркестане.- Л. Госиздат. 1925. – 138 с
- 51.Айний С Тарихи амирони манғитийаи Бухоро. Т., 1926.

52. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и салтанати манғитийа. (История мангитских государей) Перевод и примечания. Л. М. Епифановой. М. 1962.
53. Мирзо Олим Тошкандий. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин // Қўлёзма, УзР ФАШИ, № 1341 I – 180 в.